

# GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 25



2023/25  
September

ISSN 2181-4120

VOLUME 1, ISSUE 25

SEPTEMBER 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 25, SEPTEMBER, 2023**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldasheva**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

***Editorial Secretary: J. Eshonkulov***

## BUXORO VILOYATI G‘O‘ZA MAYDONLARINI SUG‘ORISHDA RESERS TEJAMKOR SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

**K.Sh.Xamrayev, Z.Z.Qodirov, M.O.Qurbanova, M.Shodmonova**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti  
“Milliy tadqiqot universiteti” Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

E-mail: [khamraev0045@gmail.com](mailto:khamraev0045@gmail.com)

*Annotatsiya: Ushbu maqolada g‘o‘za maydonlarini sug‘orishda suv tejamkor sug‘orish texnologiyalaridan biri bo‘lgan tuproqni mulchalab sug‘orish, uning barcha usullari va ularning samaradorligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

*Kalit so‘zlar: Mulchalash, qora pylonka, polimer kompleks, organik to‘shama, minimal ishlov berish, tuproq, hosildorlik.*

## DEVELOPMENT OF RESOURCE SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED COTTON FIELDS OF BUKHARA REGION

**K.Sh.Khamraev, Z.Z.Kadirov, M.O.Kurbanova, M.Shodmonova**

Bukhara Institute of Natural Resources Management of National Research University  
of “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”

E-mail: [khamraev0045@gmail.com](mailto:khamraev0045@gmail.com)

*Abstract: This article provides information on the mulching of soil, all its methods and their effectiveness, which is one of the water saving irrigation technologies of cotton cultivation.*

*Key words: Mulching, black film, polymer complex, organic mattress, no till, soil, productivity.*

Bugungi kunda XXI asrning global muammolaridan biri – suv resurslarining o‘ta tanqisligidir. So‘nggi 60 yil mobaynida ichimlik suvi iste’moli aholi sonining ortishi hisobiga sayyoramizda 8 marotabaga yaqin oshdi. Yuz yillikning o‘rtalariga kelib, ko‘p davlatlar suvni import qilishga majbur bo‘lishadi. Suv – cheklangan resurs bo‘lib, uning manbalarini egallash hozirdanoq geo-siyosatning zaruriy omillaridan biriga aylanib, sayyoramizdagi keskinliklar va mojarolik vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasining boyliklaridan biri sanalgan paxtani yetishtirishda imkon qadar suv tejovchi hamda nam saqlovchi agrotexnik tadbirlarni qo‘llab yuqori natijalarga erishish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Ma’lumki, g‘o‘za o‘simpligidan mo‘l, ertangi va sifatli hosil yetishtirish uchun ekin dalalaridan to‘liq sog‘lom ko‘chat olish muammosi respublikamiz paxtachiligidagi asosiy va hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalardandir. Bahor faslida yuz beradigan ob–havo injiqliklarini bartaraf etish chora tadbirlari majmuasida mulcha sifatida shaffof yoki qora plyonkalardan foydalanib, samarali natijalar olingan.

Buxoro viloyatining o‘tloqi allyuvial, mexanik tarkibiga ko‘ra o‘rta qumoq tuproqlari sharoitida g‘o‘zani sug‘orishda egatga polimer komplekslarni qo‘llab, egatga somon to‘shab mulchalash orqali suv resurslarini iqtisod qilish mumkin. Tajriba dalasining tuproq sharoitlarini o‘rgangan holda g‘o‘zani sug‘orishda polimer komplekslarni qo‘llash hamda somon to‘shab mulchalashning sug‘orish texnikasini, sug‘orish me’yori va muddatlari aniqlanib, g‘o‘zani sug‘orishda polimer komplekslar q‘o‘llanganda hamda egatga somon to‘shab mulchalaganda g‘o‘zaning o‘sishiga, rivojlanishiga, hosildorligiga samarali ta’siri kuzatilgan.

**Mulchalash deb**, ekin yoki ko‘chat atrofidagi tuproq yuzasini turli materiallar bilan qoplashga aytildi. To‘shama to‘shashdan maqsad ekin dalasidagi tuproqning ustki qatlamida namlik, havo va issiqlik rejimini ma’lum miqdorda mo‘tadillashtirishdan iboratdir. Mulchalash qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda agrotexnikaning bir usuli sifatida dunyoning ko‘pgina davlatlarida keng tarqalgan [2].

**Mulchalashning quyidagi usullari mavjud:**

1. Sug‘orishda kimyoviy to‘shama ya’ni polimer komplekslarni qo‘llash;
2. Tuproqqa nam saqlovchi gildorogellarni qo‘llash;
3. Tuproqqa organik to‘shama sifatida xashak, somon, barg va shunga o‘xshash materiallar to‘shab sug‘orish;
4. Qator orasiga qora pylonka to‘shab sug‘orish;
5. Tuproqni sharbat bilan sug‘orish
6. Tuproqqa minimal ishlov berish yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri ekish texnologiyasi (No till technology).

Har xil materiallardan tayyorlangan to‘shamalar to‘shash nafaqat ekin uchun foydali bo‘libgina qolmay, balki tuproq uchun xam foydalidir. Tuproq strukturasi buzilmatdi hamda namlik tuproqda uzoq vaqt saqlanadi. Organik to‘shamalar to‘shab va sharbat bilan sug‘organda tuproq kerakli ozuqalarga to‘yinadi. Tuproqni sharbat bilan sug‘orish qo‘llanilganda chirigan go‘ng g‘o‘zaga ozuqa berish bilan birga mulcha vazifasini o‘taydi, suvning bug‘lanishini kamaytiradi, tuproqqa singishini yaxshilaydi va g‘o‘za hosildorligini oshiradi.

Kichikroq dala sharoitida pylonka qo‘l kuchi yordamida to‘shalsa, katta maydonlarda maxsus mexanizmlar yordamida to‘shaladi. Pylonka to‘shama turli xildagi sug‘orish texnologiyalari bilan birgalikda qo‘llasa bo‘ladi. Turli hil ekinlar va tuproqlar uchun turlicha to‘shama materiali yaxshi natija beradi. Har doim mulcha to‘shama begona o‘tlarning o‘sishiga to‘sinqilik qiladi, tuproqning zichlanishini kamaytiradi va tuproq yuzasidagi bo‘ladigan bug‘lanishni kamaytiradi.

Kimyo sanoatida ishlab chiqarilayatgan polimer va polimer komplekslardan tuproqning yuzasini mulchalash uchun foydalanib kelinmoqda. Polimer kompleksni suv tanqis joylarda go‘za ekish uchun mo‘ljallangan yerlarga kuzgi shudgorlashdan oldin tuproq yuzasiga 1 hektar maydonga 60 kgdan sepish tavsiya qilinadi. Shudgorlashdan keyin xam xuddi shu miqdorda sepiladi. Polimer kompleks aralashmasi tuproqning quyi qismlarini qurib qolishdan saqlaydi va tuproqdan

bug‘lanish sezilarli darajada kamayadi. Buning natijasida sug‘orish suvi tejaladi va mineral o‘g‘itlar sarfi ham kamayadi.

Tuproqqa suvda kuchli shishuvchan sintetik polimerlar – gidrogellar qo‘shilganda tuproqqa uzoq vaqt davomida nam saqlash imkoniyati yaratiladi. Tuproqdagi namlik hamda ozuqani ushlab turish evaziga yuqori hosildorlikka hamda sug‘orish suvini 30-40% iqtisod qilishga erishiladi.

Har xil rangdagi plyonkalar tuproqqa va tuproq ustidagi mikroiqlimga turlicha tasirga egaligini hisobga olish kerak bo‘ladi. To‘sama uchun foydalaniladigan material turiga qarab organik va sintetik materiallardan iborat bo‘ladi. Organik to‘sama sifatida quyidagilar ishlatiladi; xashak, somon, barg, opilka, torf va o‘simliklarning boshqa maydalangan bo‘lakchalari ishlatiladi. Organik to‘sama materiali qishda qoldirilsa u chirindiga aylanadi va tuproq strukturasini yaxshilaydi. Organik to‘sama asosan kichik o‘lchamdagи bog‘ va poliz ekinlari uchun ishlatiladi. Lekin katta maydonlardagi texnik ekinlar uchun asosan sintetik to‘sama materiallaridan foydalanilmoqda [3].

Qator orasiga qora plyonka to‘sab sug‘orish uchun avval dala yirik kesaklar va toshlardan tozalanib, egatlar yaxshilab yumshatiladi. Ariq olish vaqtida uning ichiga egat uzunligi bo‘ylab plyonka to‘sab chiqiladi va plyonka chetlari tuproq bilan mahkamlanadi. Bir gektardagi ekin maydoni egatlariga to‘sash uchun o‘rtacha 60-65 kg plyonka sarflanishi tavsiya qilinadi. Suv ildizga yetarli miqdorda borishi uchun plyonka teshuvchi maxsus moslamalar yordamida ma’lum masofalarda teshib chiqiladi. So‘ngra sug‘oriladi bunda suv teshiklar orqali tuproqqasingadi va uni namlaydi. Suv plyonka ustidan harakatlanishi evaziga tuproqqa behudaga singmaydi faqat tuproqni namlashi hisobiga egat oxiriga suv kam miqdorda boradi hamda egatninig oxirida oqava suvlarning chiqishi kamayadi.

Egatga plyonka to‘sab sug‘orishning afzalliklari shundaki, egat uzunligi bo‘yicha bir tekis namlanadi, oqava suvlar miqdori kamayadi, tuproq yuzasidan suvning bug‘lanishi kamayadi, egat orasiga texnika yordamida ishlov berilmaydi, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari iqtisod bo‘ladi, tuproq strukturasi buzilmaydi sug‘orish

suvining sarfi va miqdori kamayadi. Buning natijasida suv resusrlari tejaladi, hosildorlik oshib yuqori darajada iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Tuproqqa minimal ishlov berish konsepsiysi orqali dalada doimiy organik massa bo‘lishiga, namlikni ushlab qolishga, begona o‘tlarning yo‘qotilishiga, yonilg‘i sarfi kamayishiga, organik o‘g‘it iqtisodiga hamda tuproq sifatini oshishiga erishiladi. Oraliq ekinlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri (haydamasdan) ekish natijasida minimal o‘g‘itlarning sarfini 40-50% kamayadi, ekin hosildorligi 3-5 sentnerga oshadi, begona o‘tlar rivojlanishi zanjirini uzadi, ekish muddati 10-15 kunga qisqaradi, harajatlar 50-60% kamayadi, shu bilan birga namlik saqlanishi evaziga sug‘orishlar soni kamayishi sug‘orishlar orasidagi muddatning oshishiga erishiladi.

**Mulchalashning afzalliklari.** Mulchalash tuproqning suv, havo va issiqlik rejimiga ta’sir etadi. Bundan tashqari mulcha tuproqdagi biologik jarayonlarni tezlashtirib, ekinlarni ozuqa moddalari bilan ta’minlanishini ya’ni tuproq strukturasini yaxshilaydi, tuproqqa azotni to‘playdi, shuningdek, tuproqda ozuqa elementlar hamda suv balansini yaxshilaydi. Provard natijada o‘simlikni rivojlanishi va pishib yetilishi tezlashadi va hosildorlik oshadi. Begona o‘tlarni o‘sishini oldini oladi, ba’zi bir zararkunandalarga ziyon yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, g‘o‘zani mulchalab sug‘orishning barcha turlari tuproqda g‘ozaning o‘sish va rivojlanishini tezlashtiradigan, hosildorligi oshishiga sabab bo‘ladigan barcha faktorlar ya’ni suv, havo, ozuqa, yorug‘lik va issiqlikni maqbul darajada saqlay olishi evaziga oddiy sug‘orish usuliga nisbatan eng samarali hisoblanadi. Bu usulda suv sarfi 30-40 foizga tejaladi va bir necha texnologik jarayonlar soni ham kamayadi, iqtisodiy samaradorligi oshib, rentabellik oddiy uslubga nisbatan yuqori bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro"yxati:**

1. Xamidov M.X, Suvanov B.U, Isabaev K.T-Sug'orish melioratsiyasi. Toshkent, o'quv qo'llanma 2019.
2. Muxammadjonov M.V., Zokirov A.Z. -G'o'za agrotexnikasi. Toshkent, "Mehnat" 1988.
3. Maxmudova M. Qator oralarini polietilen plyonka bilan mulchalashni g'o'za hosildorligiga ta'siri. "Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari" mavzusidagi an'anaviy XVII- chi olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy amaliy anjumani.

## GALIA QOVUNINI INSONGA FOYDALI JIHATLARI VA YETISHTIRISH TARTIBI

**Jo‘rayeva Dilnoza Xudoyberdi qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Galia qovun navini kelib chiqishi, insonga foydali jihatlari, o‘sib rivojlanishi, yetishtirish tartibi hamda boshqa kerakmi ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Galia, qovun, nav, gul, meva, o‘rta pishar, xosildorlik, chidamlik, vitamin, immunitet.*

**Аннотация:** В этой статье дается информация о происхождении сорта дыни Галия, его пользе для человека, выращивании, порядке выращивания и других аспектах.

**Ключевые слова:** Галия, дыня, сорт, растение, цветок, плоды, среднеспелость, урожайность, выносливость, витамин, иммунитет.

**Annotation:** This article provides information about the origin of the Galia melon variety, its benefits for humans, cultivation, cultivation procedure and other aspects.

**Key words:** Galia, melon, variety, plant, flower, fruit, mid-ripening, productivity, endurance, vitamin, immunity.

### **Kirish**

*Galia qovunining tavsifi*, qovun Galia o‘rta erta navlarga tegishli. Aslida Isroildan kelgan oddiy o‘simlik. U AQSh, Chili, Panama va Janubiy Amerika mamlakatlarida yetishtiriladi. Barcha ob-havo sharoitlariga juda mos keladi, meva katta, oq-yashil pulpa va to‘q sariq po‘stlog‘i bilan yumaloqlanadi. Galia F<sub>1</sub> navidagi qovun ijobiy ko‘rsatkichga ega, ajoyib ta’mi va xushbo‘yligi bilan mashhur.

Mevalar nafis taomlarni tayyorlash uchun, shuningdek murabbo, konservalar tayyorlash uchun pishirishda ishlataladi. Galia qovunidagi shakarlarning ko‘pligi undan ko‘plab shirinliklarning ajralmas qismi bo‘lgan shakarli mevalarni tayyorlashga imkon beradi. Galia qovunining ijobiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi. Sovuqqa chidamlilik, oddiylik, yoqimli ta’m, tashish qobiliyati. Turning kamchiliklari hozircha aniqlanmagan.

Galia qovunining sog‘liq uchun foydalari ularning vazn yo‘qotishga, immunitet tizimini mustahkamlashga, ko‘rish va ovqat hazm qilish jarayonlarini yaxshilashga, yurak sog‘lig‘ini himoya qilishga va qandli diabetni davolashda yordam berish qobiliyatidir. Bundan tashqari, u saratonga qarshi salohiyatga ega.

Galia qovunlar Hindistonda paydo bo‘lgan deb hisoblansada, aslida Isroilda ishlab chiqarilgan qovun va asalli qovunning gibriddi navidir. Galiya qovunlarining ilmiy nomi *Cucumis melo var. retikulyatusva* u kelib chiqqan ikkita qovun bilan juda chambarchas bog‘liq. Tashqi po‘stlog‘i kantalupaning tuzilishi va tuzilishiga juda o‘xshaydi, lekin ichki mevali go‘shti asalli qovunga o‘xshab och sariqdan yashil ranggacha. Galia qovunlarining ta’mi – qovun va asal qovunining o‘ziga xos kombinatsiyasi bo‘lib, ko‘philik uni yoqtiradi.

Galia qovunlari C vitamini, A vitamini, karotenoidlar, bioflavonoidlar, kaliy, kaltsiy va temir kabi turli minerallarga boy, shuningdek, tarkibida pektin ham bor. Bundan tashqari, ularda yog‘, xolesterin va kaloriya miqdori past. Galiya qovunlari yurak sog‘lig‘ini yaxshilashga ikki jihatdan yordam beradi. Oziq-ovqat mahsulotining yuqori miqdori bilan ular aterosklerozdan himoya qila oladigan tanadagi LDL yoki yomon xolesterolni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, vazodilatator vazifasini bajaradigan kaliy miqdori yuqori bo‘lgani uchun qon bosimini pasaytirish mumkin, bu esa koroner yurak kasalligi yoki insult yurak xurujiga chalinish ehtimolini kamaytiradi.

Ovqat hazm qilishda, ayniqsa, gali qovunlari ko‘p bo‘lgan pektin kabi eriydigan mahsulotlar, oshqozondagi mahsulotni chiqarib tashlashga, ich qotishi va boshqa oshqozon-ichak muammolarini bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari, eriydigan mahsulotlar sizni to‘ydiradi, bu ortiqcha ovqatlanish ehtimolini kamaytiradi va dietada bo‘lgan odamlarga yordam beradi.

Galiya qovunlari immunitet tizimini rag‘batlantiruvchi C vitamini va A vitamini, antioksidant vazifasini bajaruvchi karotenoidlar va bioflavonoidlar kabi ko‘plab ozuqa moddalariga boy, shu bilan tanangizni kasalliklardan himoya qiladi. Braziliyalik tadqiqotchilar jamoasi Braziliya tibbiy va biologik tadqiqotlar jurnalida tadqiqot o‘tkazdilar, natijada yuqorida aytib o‘tilgan flavonoidlar va ozuqa moddalari kabi saratonga olib kelishi mumkin bo‘lgan erkin radikallarni yo‘q qiladi yoki zararsizlantiradi. Tadqiqotga ko‘ra, galia qovunlari o‘pka, og‘iz, yo‘g‘on ichak va ko‘krak saratoni xavfini kamaytirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan organik birikmalarni o‘z ichiga oladi.

Qovunlarda o‘rtacha miqdorda bo‘lgan A vitamini, ayniqsa, ko‘rish qobiliyatini himoya qiluvchi karotenoidlarga ega. Beta-karotin molekula degeneratsiyasini, ultrabinafsha nurlanishiga sezuvchanligini va kataraktani oldini oladi.

Xalqaro ma’lumotlarga ko‘ra *Xalqaro farmatsevtika jurnali, Cucumis melo* diabetga qarshi xususiyatlarga ega. Qovun ekstraktida mavjud bo‘lgan oksikin biokimyoviy moddasi diabet bilan og‘riqan bemorlarda buyraklardagi oksidlovchi stressni kamaytirishga yordam beradi. Sichqoncha modeliga ko‘ra, oksikin potentsial diabet kasalligida nefropatiyaning oldini olishga yordam beradi. Qovunlarning diabetik terapevtik imkoniyatlarini tekshirish uchun qo‘sishma tadqiqotlar talab qilinadi.

Ekish joyini tanlash va tayyorlash joyni to‘g‘ri tanlash hosilning normal o‘sishi va rivojlanishi uchun muhimdir. Galia qovuni quyosh sevar o‘simlik, ekish joyida namlik turg‘unlashmasligi kerak, namning ko‘pligi o‘simlikni zamburug‘ kasalliklariga chalinishiga sabab bo‘ladi. Urug‘lar eng yaxshi unumdor yerkarta qilib qilishni maqsadga muvofiq.

Sug‘orish va oziqlantirish keng qamrovli e’tibor juda muhimdir, chunki u yuqori hosil va kasalliklarga chidamliligini ta’minlaydi. Birinchi navbatda asosiy narsa tuproqni yumshatishdir, u ildiz tizimini kislorod bilan ta’minlaydi. Har bir bog‘bon uchun oddiy va tushunarli protsedura ham yordam beradi - o‘simlikning faol o‘sishiga to‘sinqlik qiladigan begona o‘tlarni yo‘q qilish. Galia qovunini sug‘orishda, suvni +22 °C ga qadar qizdirish kerakligini hisobga olish kerak. Ildizga yaqiniga ortiqcha namlik kirishiga yo‘l qo‘ymang bu zamburug‘ kasalliklari rivojlanishiga, shuningdek hosilning pasayishiga yoki uning to‘liq yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Galia qovunining ekishdan 2 hafta o‘tgach, yerga ammiakli selitra (10 litr suv uchun 1 osh qoshiq) qo‘shing. Har bir tup 2 litr eritma olishi kerak. Gullash davrida protsedurani bir xil tarkib bilan takrorlang yoki bir xil nisbatda organik moddalardan foydalaning. Bu tuproqda uzoqroq bo‘lish orqali ozuqa moddalari o‘simlikning ildiz tizimini boyitishga yordam beradi.

Galia navidagi qovun mineral oziqlanishsiz o‘sib rivojlanishi mumkin, ayniqsa tuproq unumdar bo‘lsa, organik moddalar bilan yaxshi to‘ldirilgan bo‘lsa. Bu holda mevalar kichikroq, ammo shirinroq va mazali bo‘ladi. Yetishtirishda, to‘g‘ri kerakli ekishni va o‘sish uchun qulay sharoitlarni talab qiladi. Ekishdan oldin, ko‘chatlarni yaxshilash uchun urug‘larni bor va sulfat kislota eritmasiga yoki boshqa o‘sish stimulyatoriga 12 soat davomida ivitish lozim.

Xulosa: Qovunning bugungu kunda ahamiyati juda yuqori bo‘lib, respublikamiz aholisi o‘rtasida qovun iste’moliga bo‘lgan talabi oshib bormoqda. Bu talabdan kelib chiqib yangi Galia qovun navini introduksiya qilish ustida ilg‘or agrotexnika tadbirlarini qo‘llagan holda aholiga hamyonbop, bozor peshtaxtalaridan joy oladigan va aholi iste’moli talabiga javob beradigan mahsulot yetishtirib chiqarishni maqsad qilib ilmiy izlanishlar amalga oshirilib borilmoqa.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ostonaqulov.T.E. va boshqalar.-Samarqand qovunlari. Samarqand 2008 yil. 70 bet.
2. Ko‘chqarov.S.K. va boshqalar. O‘zbekistonda poliz va poliz ekinlarining urug‘chiligi. Toshkent. “O‘zbekiston”.1985 yil.
3. [www.agrokorenevo.ru](http://www.agrokorenevo.ru)
4. [www.urozhayna-gryadka.narod.ru](http://www.urozhayna-gryadka.narod.ru)

## TARVUZNING MAHALLIY HAMDA CHET-EL SUPER CRIMSON NAVLARINING TAVSIFI

**Jo‘rayev Jasurbek Murodjon o‘g‘li**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bilan tanishib bilishgiz mumkinki tarvuzning mahalliy Dilnoz, Manzur, Qo‘ziboy-30, Hayit qora hamda chet-el navidan Super Crimson, navlarining qimmatli xo‘jalik belgilarini va tavsiflarini bilishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Tarvuz, nav, hosildorlik, gul, meva, Dilnoz, Manzur, Qo‘ziboy-30, Hayit qora, Super Crimson.

**Аннотация:** Ознакомившись с этой статьей, Вы сможете узнать ценные хозяйствственные признаки и описания сортов арбуза местного производства Дилноз, Манзур, Баранина-30, Хайит кора и зарубежного сорта Super Crimson.

**Ключевые слова:** Арбуз, сорт, урожайность, цветок, фрукты, Дилноз, Манзур, Баранина-30, Хайит кора, Super Crimson.

**Annotation:** After reading this article, you will be able to learn valuable economic characteristics and descriptions of the locally produced watermelon varieties Dilnoz, Manzur, Lamb-30, Khayit kora and the foreign variety Super Crimson.

**Key words:** Watermelon, variety, yield, flower, fruit, Dilnoz, Manzur, Lamb-30, Khayit bark, Super Crimson.

## Kirish.

O‘zbekistonda tarvuz eng bezarar poliz mahsulotlaridan biri sanaladi. Chunki uning qattiq po‘stlog‘i turli zararli moddalarni tashqi muhitdan kirishiga yo‘l bermaydi. Ayniqsa so‘nggi yillarda tarvuzni yetishtirish bir muncha ortdi. O‘zbekistonda tarvuzning 47 ta navlari hududlashtirilgan bo‘lib, shulardan 15 ta mahalliy, qolgani chet el navlaridir. Quyida yurtimizda eng ko‘p tarqalgan tarvuz navlari to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan:

*Dilnoz navi* – Erta-o‘rtapishar nav bo‘lib, o‘sish davri 80-85 kunni tashkil etadi. Mevasi sharsimon, po‘sti to‘q yashil, qora tikansimon gullari bor, vazni 3-4 kg ga yetadi. Eti to‘q qizil, sersuv bo‘ladi. Tarkibida qand miqdori 7,5-8,5% ga teng. Hosildorligi 30-35 t/ga yetishi mumkin. Tashishga chidamliligi yuqoriligi ajralib turadi.

*Manzur navi* – Ertapishar nav bo‘lib, o‘sish davri 80-90 kunni tashkil etadi. Palagi o‘rtacha, yon shox va barglar soni o‘rtacha bo‘ladi. Bargi konussimon, yashil rangli, bir oz mayin, tukli, och yashil tusda bo‘ladi. Mevasi sharsimon, o‘rtacha hajmda, vazni 2,5-3 kg ga etadi. Po‘sti qattiq, och yashil, tikansimon to‘q yashil gullari bor. Eti malinasimon, urug‘lari mayda bo‘ladi. Hosildorligi 25-30 t/ga yetadi.

*Qo‘ziboy-30 navi* – Kechpishar nav bo‘lib, o‘sish davri 120-130 kunni tashkil etadi. Palagi katta, poyasi uzun bo‘ladi. Mevasi yumaloqsimon, yuzasi silliq, yashil, ba’zan qoramtil, yuzasida chetlari jimjima, ingichka, kam bilinadigan tasmalari bor. Vazni 5-6 kg ga yetadi. Po‘sti qattiq, eti och qizil, sersuv, shirali, ba’zan tolali bo‘ladi. Degustatsion bahosi 3,5-4,7 ballga teng. Tarkibida quruq modda miqdori 7,2%, qand miqdori 6,8% ni tashkil etadi. Hosildorligi 35-40 t/ga yetadi. Qishda yaxshi saqlanadi, uzoq masofalarga jo‘natishga yaroqli, qurg‘oqchilikka chidamlili bilan ajralib turadi.

Tarvuzning *Super Crimson* –turining tavsifi va xususiyatlari quyuq chiziqlar bilan o‘rtacha qalinlikdagi qattiq po‘stlog‘iga ega tarvuz navi xisoblanadi. Uning mevasi yaxshi agrotexnika bilan qaralganda 24 kg gacha borishi mumkin.

Frantsiyada Miles *Peacock* va *Charleston Grey* dan duragaylash yo‘li bilan olingan. AQSh bozoriga kirganidan so‘ng darhol ushbu nav 1964 yilda nufuzli Breeders Cup (AAS) ni qo‘lga kiritdi. Crimson Sweet navi yuqori tarkibdagi shakar va ajoyib ta’mga ega bo‘lib, erta pishib yetiladi, namlikka o‘rtacha talabchan va iqlimga yaxshi moslashish bilan ajralib turadi.

**Turning xususiyatlari:** Iliq mavsumda yetishtirish uchun moslashga, iqlimlashishi - yaxshi, qurg‘oqchilikka chidamli, pishib yetilishi 80 kunni talab etadi, o‘rta – ertaki hisoblanadi, kasalliklarga chidamlilik *fusarium* - 1, *antraknoz* – 1 ga mahalliy navlarga nisbatan bardoshli, kuniga 10 soatgacha quyoshni talab etadi, ekish usuli – dalaga urug‘larini yoki ko‘chatlarini ekib yetish tirish mumkin, ekish muddati aprel-may oylariga to‘g‘ri keladi.

**Super Crimson** tarvuz navi keng tarqalgan shakar boy nav hisoblanadi. Uning tez yetilib pishishi uchun urug‘ yerga tushgan paytidan boshlab 70-80 kun ichida pishib yetiladi. Ushbu indikatorlar erta muddatda pishib yetilishi uchun xizmat qiladi. May oyining boshlarida ekilgan urug‘ avgust oyining oxirida yetilgan mevalarni yig‘ib olish mumkin. Turning hosildorligi yaxshi, xatto quruq iqlimlarda ham o‘sib rivojlanib mevalar berishi mumkin. Agar tarvuz qulay sharoitlarda pishib yetilsa, uning vazni 5 kg dan 12 kg gacha o‘zgarishi mumkin.

Tarvuzni ichki go‘sht zich, rivojlanish vaqtida o‘ziga qizil rang oladi. Pishgan tarvuzni kesish, uning aromati va ta’mi juda yaxshi, Ushbu tarvuz navi Frantsiyada seleksiya yo‘li yaratilgan va ko‘paytirilgan. Ayni paytda, ushbu navni dunyoning ko‘plab mamlakatlarida uchratish mumkin. Jumladan O‘zbekistonga iqlimlashtirish ishlari boshlangan, biz ham tadqiqotimizni aynan ushbu *Super Crimson* navini davlatimizda iqlimlashtirib, o‘sishi va rivojlanishi, hosildorlig ko‘rsatgichlarini aniqlashga qaratganmiz.

Tarvuz Crimson har qanday joylarda o‘sishi mumkin, lekin quyoshli havoni talab etadi. Yerning iqlimi salqin bo‘lsa, u ko‘chatlarni issiqxonada sharoitida yoki maxsus boshpana ostida ekish tavsiya etiladi. Aks holda, kerakli natijani olib bo‘lmaydi. Janubliklar ochiq yerga ekish uchun ko‘proq mos keladi. Bunday

sharoitlarda siz ko‘chatlarni oldindan tayyorlangan tuproqdagi urug‘larni ekishingiz mumkin. Hosildorligi o‘rtacha gektaridan 60-70 tonna olinadi, ko‘chatlarni har biridan kamida 3-4 ta katta meva olishingiz mumkin. Haddan tashqari azotli o‘g‘itlash meva rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin yashil o‘simliklarning o‘sishini faollashtiradi.

Tarvuzlarning mevalariga ta’sir qiluvchi kasalliklar - *Oq nayza* - tashqi ko‘rinishi namlik darajasi va havo sharoitida tez-tez o‘zgarib turishi bilan ta’minlanadi. O‘sish va rivojlanishni to‘xtatadi, bu kasallikka qarshi kurash mis sulfatning eritmasini purkashlik bilan amalga oshiriladi. *Qora chirish* - Hasharotlar orqali zararkunanda zamburug‘ kasalligi, bunda zararlangan joylari olib tashlanadi va xlorli mis bilan ishlov beriladi. *Mealy shudring* - o‘simlik to‘liq ta’sirlanadi, to‘liq gulib tashlash kerak va yoqish zarur bo‘ladi. *Antraknoz* - barglar va mevalarda jigarrang dog‘lar paydo bo‘ladi. Tuproqni begona o‘tlardan tozalash zarur va Bordeaux mohiyati va kuprazon eritmasi bilan o‘simlikni suv bilan purkash kerak. *Ildiz chirishi* – har doim yuqori namlik va past haroratlarda mavjud bo‘ladi. O‘simlik butunlay yo‘q qilinadi.

Xulosa: Tarvuzning bugungu kunda ahamiyati juda yuqori bo‘lib, respublikamiz aholisi o‘rtasida tarvuz iste’moliga bo‘lgan talabi oshib bormoqda. Bu talablarni hisobga olgan holda yangi Super crimson navini introduksiya qilish ustida ilg‘or agrotexnika tadbirlarini qo‘llagan holda aholiga hamyonbop, bozor peshtaxtalaridan joy oladigan va boshqa shu kabi tarvuz navlari bilan bemalol raqobat qila aldigan shunungdek, aholi iste’moli talabiga javob beradigan mahsulot yetishtirib chiqarishni maqsad qilib ilmiy izlanishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

## Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://uz.blabto.com/4353-15-best-new-varieties-and-hybrids-of-watermelons.html>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Tarvuz\\_navlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Tarvuz_navlari)
3. <https://agronet.uz/tarvuz-navlari/>
4. <https://agro-olam.uz/tarvuz-navlari-haqida-batafsil-malumot/>

## THE STRENGTH OF REINFORCEMENT CONNECTION WITH CERAM SITE CONCRETE

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor **R.R. Yusupov**,

Ph.D. candidate **D.Kh. Khojaev**,

Master's student **J.I. Makhmudov**

(Tashkent University of Architecture and Civil Engineering)

[khodjayeff009@gmail.com](mailto:khodjayeff009@gmail.com)

**Annotation.** The article discusses the results of experimental research on the durability of A400 grade reinforcement connections with structural ceramsite concrete. Variations in the reinforcement diameter and the strength of the structural ceramsite concrete in the connection were considered as influential factors. The analysis and conclusions based on the results have been provided.

**Keywords:** Reinforcement, structural ceramsite concrete, testing, results, analysis, strength, connection.

### INTRODUCTION

The durability, load-bearing capacity, and reliability of a reinforced concrete structure during its operational lifespan are determined by the integrity of the reinforcement bars bonded with concrete. This indicator establishes the ability of a reinforced concrete structure, composed of two materials, to function as a cohesive and reliable system.

An inspection of operational reinforced concrete structures reveals that a significant portion of damage and defects occurs as a consequence of the deterioration of the bond between the reinforcement bars and the concrete. Such defects can potentially emerge during the construction of reinforced concrete structures and persist throughout their operational use.

## Materials' Characteristics and Testing Methods

The method relied on increasing the volume of the primary expanding agent to identify the optimal compositions for structural ceramsite concrete [1], which means increasing its quantity beyond 0.85 m<sup>3</sup>. This method has a positive impact on the structure of ceramsite concrete, where it encourages a significant portion of the water in the concrete mix to be absorbed by the ceramsite particles, enhancing the density and strength of the contact zones. Additionally, it promotes better bonding between the contact zones and increases the strength of the cement-sand mixture.

The compositions of ceramsite concrete based on this method are listed in Table 1.

**Table 1: Composition of Ceramsite Concrete**

Ceramsite concrete class	Material consumption per 1 m <sup>3</sup>						Water/cement ratio	
	Portland cement, kg	Fine sand, kg	Ceramsite (L) fractions (mm)			Unit weight, kg/m <sup>3</sup>		
			Sand 0-5	5-10	10-20			
B12.5	275	520	130	400	600	1500	0.65	
B15	350	500	117	400	560	1635	0.57	
B25	475	600	-	300	540	1710	0.52	

Note: The consistency of ceramsite concrete mix complies with the standard cone of 2-4 cm.

Materials used for preparing ceramsite concrete mix include:

- Portland cement M400, with a 28-day strength of 41.5 MPa;
- Local ceramsite, bulk density ranging from 550 to 570 kg/m<sup>3</sup>, and a compressive strength of 3.0 to 3.8 MPa when tested in a standard cylinder;
- Fine sand with a fineness modulus (M<sub>KP</sub>) of 1.5 to 1.7 and a bulk density of 1400 kg/m<sup>3</sup>;
- Water, obtained from the general water supply.

To assess the strength of ceramsite concrete, 15 cm cube specimens were prepared in metal molds. After demolding, they were stored under laboratory conditions ( $t=20\pm5^{\circ}\text{C}$ ,  $W=70\pm5\%$ ) until the testing day. Cubes of the same dimensions were also prepared with A400 grade reinforcement bars, intended for studying the bond strength between temporary reinforcement and structural ceramsite concrete. These specimens were also stored under laboratory conditions until the testing day.

The strength of ceramsite concrete was determined according to GOST 10180 – 2012 [2] by hydraulic pressing of samples at 28 and 60 days. Table 2 presents the average values of concrete strength (based on 3 samples).

#### Concrete Strength (Results of Quality Control Tests)

Table 2

Type of Concrete	Concrete Class	Strength, MPa	Age of Samples, Days	Density, kg/m <sup>3</sup>
Ceramsite Concrete	B12.5	16.2	28	1450
		16.5	60	1440
	B15	21.5	28	1600
		22.0	60	1580
	B25	32.0	28	1680
		32.8	60	1650

According to the results presented in this table, the specified composition of concretes provides the expected results in terms of strength, and it is possible to prepare samples of the main studies from them. The laboratory conditions in which the samples were stored did not have a negative effect on the strength of the concrete, as no decrease in strength was observed in the 60-day-old samples.

Determination of the mechanical properties of reinforcements was carried out by stretching their samples according to the requirements of GOST 12004-81. Such tests were carried out on GRM-1 hydraulic machines in the Turin investment engineering laboratory. In the experiments, local reinforcement rods meeting the current standard were used.

## Results and their analysis

The connection of reinforcement with concrete ensures that they resist displacement together. This resistance depends on many factors, confirmed by the results of the conducted studies. Among these factors, the type of concrete is also important. In particular, the issues of connection with reinforcement for structural ceramsite concrete have not yet been sufficiently studied. Any research conducted in this direction is evaluated by its relevance, because the use of structural ceramsite concrete in pre-strengthened reinforced concrete structures has its own effect. Their use in the conditions of our republic increases the earthquake resistance of buildings and structures.

The conducted tests are based on the pressing of the reinforcing rod located in the center of the ceramsite concrete cubes.

During these tests, as a result of the increase in tension, the contact bonds between the reinforcement and ceramsite concrete begin to break, microcracks are formed, and the reinforcement is pushed out of the sample due to the rapid development of transverse stretching deformations.

Due to the relatively small number of connections of the reinforcement, the reinforcement compresses the samples of B12.5 class ceramsite concrete without breaking. It was observed that the reinforced concrete samples with strength class B15 were broken into two pieces, and when the class was B25, the sample was broken into three pieces. Of course, the nature of such a failure depends on the tensile strength of ceramsite concrete and its limit tensile deformations. The failure begins with the breaking of the thin bonds between the reinforcement and the concrete, because they cannot withstand the critical stresses that have arisen. After that, the movement of the reinforcement to the lower side accelerates, and finally, the formation of longitudinal cracks on the surface of the sample was observed.

Based on the obtained test results, the test stresses were calculated as the ratio of the ultimate stress in the reinforcement to the surface of the anchored reinforcement.

The test results for the studies are presented in Table 3.

Table 3

Ceramsite concrete class	Strength of ceramsite concrete on the test day, MPa	Statistical distribution parameters	Diameter of the reinforcement, mm	
			12	18
B12,5	17,2	$\tau_{bs}$ $S_m$ $\nu$	6,1	5,5
	18,0		6,7	3,65
	15,5		6,1	7,2
	Average value		-	-
B15	21,6	$\tau_{bs}$ $S_m$ $\nu$	7,5	6,4
	22,6		3,06	6,45
	21,8		4,85	7,3
	Average value		-	-
B25	34,6	$\tau_{bs}$ $S_m$ $\nu$	9,9	8,8
	33,4		3,6	4,62
	32,8		8,4	4,95
	Average value		-	-

Note.  $\tau_{bs}$  – arithmetic mean value of bond strength, MPa;  $S_m$  – mean squared deviation;  $\nu$  – coefficient of variation, %

According to the research results presented in Table 3, it can be said that the connection surfaces between the reinforcing rod and ceramsite concrete have high strength and their joint operation is reliable. The peculiarity of the structure of construction ceramsite concrete and its deformations are responsible for the occurrence of such a process.

As confirmation of this, the following obtained results can be cited [3]. It has been established that the initial modulus of elasticity of structural ceramsite concrete and its limiting compressive deformations depend not only on concrete strength, but also on the properties of the porous filler used and the specific gravity of the cement + sand mixture in the concrete mixture.

According to the results of researches [4,5], the limit elongation value of ceramsite concrete is equal to  $20 \div 30 \times 10^5$ , which shows that this indicator is

approximately twice as much as that of heavy concrete. When the consumption of porous filler in the composition of such concretes is in the range of  $0,86 \div 0,96 \text{ m}^3/\text{m}^3$ , their tensile strength and ultimate elongation increases and increases the degree of crack formation according to O.Ya.Berg [6].

It is known that one of the factors determining the strength of connection of reinforcement with concrete is the adhesive ability of cement gel, that is, its consumption in concrete. The analysis of the results of experimental studies on this issue shows that the strength of the connection of the steel reinforcement with a diameter of 12 mm to ceramsite concrete can be calculated using the following model:

$$\tau_{bs} = 1,3 \cdot K_a \cdot r_0 \cdot \sqrt{R_b(t_0)}, \text{ MPa}$$

where:

$r_0$  – specific gravity of the cement + sand mixture in the concrete mixture;

$R(t_0)$  – strength of ceramsite concrete under loading moment, MPa;

$K_a$  – coefficient that takes into account the effect of the shape of the surface of the reinforcement;

$K_a = 1,0$  – for a smooth surface reinforcement;


$K_a = 1,9$  – for a periodic surface reinforcement;

1,9 – coefficient depending on the properties of the porous filler.

This model should be higher than  $R_b(t_0) \geq R_{b,28}$  and belongs to the class of ceramsite concrete compressive strength from B12.5 to B25.

The correlation of the obtained results is presented in this figure. For the reinforcement diameter of 12 mm, the calculated values of its bond strength with ceramsite concrete according to the formula (3) have a reciprocal ratio of the experimental values in Table 3 equal to 0.93, that is, the difference between them is 7% on average.

It was found that the average value of the ratio of the strength of the reinforcement when the diameter of the reinforcement is 18 mm to the strength of the connection at the diameter of the reinforcement is 0.9, that is, it is less than 10% on average.



*The connection strength of reinforcing rods with ceramsite concrete depends on its class:*

*1 - Reinforcement with a diameter of 12 mm*

*2 - Reinforcement with a diameter of 18 mm*

## CONCLUSION

Based on the results of the conducted experimental and theoretical research, the following conclusions can be drawn:

- The connection strength of structural ceramsite concrete with reinforcement depends on its class (A400) as well as the diameter of the reinforcement. Variations in the test results were not significantly high, with a coefficient of variation below 7.3%. This indicates the consistent performance of ceramsite concrete for the tested parameters.
- The increase in the diameter of the reinforcement from 12 mm to 18 mm resulted in an average decrease of 12% in the connection strength. This reduction can be attributed to the larger diameter of the reinforcement.
- As the class of ceramsite concrete increased from B12.5 to B25, the connection strength for anchorage increased by up to 60%. This suggests that higher-class ceramsite concrete is more suitable for anchoring purposes.

It should be noted that the anchorage strength of reinforcement with ceramsite concrete remains largely consistent, but the specific values depend on the class of concrete and the diameter of the reinforcement.

## LIST OF REFERENCES

1. Khodjaev S.A. Technological features of prestressed ceramsite concrete for non-rolled roof concrete panels. Abstract of the dissertation for the degree of candidate of technical sciences. Moscow, 1981.
2. GOST 10180-2012. Interstate standard. Concretes. Methods for determination of strength using control specimens. Standardinform, Moscow, 2018.
3. Shadzhaliyev Sh. Features of the operation of pre-stressed elements made of ceramsite concrete in areas with a dry-hot climate. Abstract of the dissertation for the degree of candidate of technical sciences, 05.23.01. Odessa, 1988.
4. Yusupov R.R., Shadzhaliyev Sh. Structural properties of ceramsite concrete using fine sand. - Concrete and Reinforced Concrete, No. 7, 1983, pp. 24-25.
5. Shcherbakov E.N., Khubova N.G., Shadzhaliyev Sh. Influence of a dry-hot climate on the strength and deformation characteristics of structural ceramsite concrete. - In: The Influence of Climatic Conditions and Load Regimes on Deformations and Strength of Structural Concretes and Elements of Reinforced Concrete Structures. Tbilisi, GruzNIIstrom, 1985, p. 86.
6. Berg O.Ya. Physical fundamentals of the theory of strength of concrete and reinforced concrete. Moscow, Gosstroizdat, 1962.

## KUNGABOQARNI TURLI SUG‘ORISH USULLARIDA SUG‘ORISHNING SIZOT SUVLARI SATHI VA MINERALIZATSIYASIGA TA’SIRI

**Z.Z.Qodirov, K.Sh.Xamrayev, O.Shodiyev, J.Jumayev, M.Shodmonova**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti  
“Milliy tadqiqot universiteti” Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

E-mail: [khamraev0045@gmail.com](mailto:khamraev0045@gmail.com)

*Annotation:* Ushbu maqolada kungaboqar ekinni sug‘orishda suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari ya’ni tomchilatib va pylonka ostidan tomchilatib sug‘orish usullarining sizot suvlari sathi va sifatiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

*Key words:* Sug‘orish usuli, qora pylonka, sug‘orish texnikasi, sug‘orish texnologiyasi, kiritik chuqurlik, faol qatlam, hisobiy qatlam, unumdor qatlam, tuproq, hosildorlik.

## EFFECT OF IRRIGATION UNDER VARIUS WATER-SAVING TECHNOLOGIES ON GROUND WATER TABLE AND MINERALISATION

**Z.Z.Kadirov, K.Sh.Khamraev, O.Shodiev, J.Jumaev, M.Shodmonova**

Bukhara Institute of Natural Resources Management of National Research University  
of “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”

E-mail: [khamraev0045@gmail.com](mailto:khamraev0045@gmail.com)

*Abstract:* In this article given information on water-saving technologies for irrigation of corn, drip irrigation and drip irrigation under film technology and its effect on ground water table and mineralisation.

*Key words:* irrigation method, black film, irrigation technique, irrigation technology, critic depth, active layer, accounting layer, fertile layer, soil, productivity.

Jahonda global iqlim o‘zgarishi, havo haroratining oshib borishi, aholi sonining ortishi natijasida suv tanqisligi tobora ortib borayotgan sharoitda suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda suvni tajab-tergab ishlatish, sug‘orishning tejamkor usuli hisoblangan tomchilatib sug‘orish usulini qo‘llash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda “...yer sharida mavjud suv resurslarining 2,0 % chuchuk suv zahiralari bo‘lib, uning 79 % qismi abadiy muzliklar, 20 % yer osti suvlari va 1,0 % ko‘l va daryo suvlaridan iborat bo‘lib, insoniyat ehtiyoji uchun juda taqchildir”<sup>1</sup>. Bu norada, jumladan suv resurslarini tajaydigan, foydalanishga qulay bo‘lgan, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi hamda sifat ko‘rsatgichini oshirishga qaratilgan suv iqtisodiga moslashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda zamonaviy suv tejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash, xususan tomchilatib sug‘orish usulidan foydalanish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda sug‘orish suvlari taqchilligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlaridan, ayniqsa, moyli ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda suv resurslarini tejovchi sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash eng muhum va dolzarb vazifa eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu masalaga mamlakatimiz Prezidenti va hukumati tominidan katta e’tibor berib kelinmoqda. Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tanqisligini salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida resurstejamkor sug‘orish texnologiyalarini keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 3.3 bandida “...qishloq xo‘jaligida suv va boshqa resurslarni tajaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarini qo‘llash” ga alohida e’tibor berilgan.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarini joriy qilishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Shu maqsada Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi “Zarifota” fermer xo‘jaligida 2020-2022-yillarda kungaboqar ekinni sug‘orishda

suvtejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy qilinib ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu tajribalarda maxalliy va xorijiy navlarni sug‘orishda egalab sug‘orish, tomchilatib sug‘orish va qora plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi. Kungaboraqning xorijiy “NS LEVIATAN” navi tanlab olindi. Tadqiqotlar davomida vegetatsiya boshida va oxirida tuproqdan va sizot suvlaridan namunalar olinib laboratoriya sharoitida o‘rganib borildi.

Tadqiqotlar olib borilgan dalaning tuproqlarining agrofizik xossasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, haydov qatlamda tuproq hajm massasi  $1,34 \text{ g/sm}^3$  atrofida, keyingi qatlamlarda hajm massasining qisman kamayishi namoyon bo‘ldi, tuproqning zichligiga qarab turli qatlamlarning dala nam sig‘imi quruq massasiga nisbatan 21,1 dan 22,3 foizgacha oralig‘ida o‘zgarib turdi. Tuproqning geomorfologik, agroximik, agrofizik xossalariga ko‘ra o‘tkaziladigan dala tajribalari mazkur region uchun kungaboqar ekinni yetishtirish va ulardan barqaror hosil olish uchun qulay hududdir. Tajriba dalasining tuprog‘i sho‘rlamish darajasiga ko‘ra kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sirasiga kiradi.

Sizot suvlar sathining o‘zgarishi doimiy 15 ta kuzatuv quduqlari orqali aniqlab borildi. O‘rtacha sizot suvlari sathi o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.



**1-rasm. Kungabor hosildorligini aniqlash jarayoni**

Qishda sho‘r yuvish, bahor davridagi yog‘inlar va mavsumiy sug‘orishlar yer osti suvlarni yil davomida o‘zgarib, bahor 2,0-2,3 yozda 1,3-1,6 va kuzda 2,1-2,4 m bo‘lishini ko‘rsatdi. Mavsumiy sug‘orishlar natijasida sizot suvlar sathi ko‘tarilgan, kuzda esa sug‘orish to‘xtailgandan so‘ng u yana pasaygan.

Tajriba olib borilgan dala maydonida sizot suvlaridan namunalar olinib, Amu-Buxoro ITHB huzuridagi meliorativ ekspedisiyasi laboratoriyasida minerallashganlik darajasi o‘rganildi.

### 1-jadval

#### **Tajriba dalasida sizot suvleri sathining o‘zgarishi, 2021-yil (1.04.2021-1.11.2021) ( Kungaboqarning “NS LEVIATAN” navi ekilgan dala maydoni), m**

Kuzatish o‘tkazilgan sana	Egatlab sug‘orish (nazorat)	Tomchilatib sug‘orish (75-75-65)	Tomchilatib sug‘orish (75-80-65)	Plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish (75-75-65)	Plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish (75-80-65)
	V <sub>1</sub>	V <sub>2</sub>	V <sub>3</sub>	V <sub>4</sub>	V <sub>5</sub>
10.03	2,05	2,03	1,95	2,01	2,00
20.03	2,01	1,99	1,91	1,97	1,96
30.03	1,94	1,92	1,84	1,90	1,89
10.04	1,89	1,87	1,79	1,85	1,84
20.04	1,83	1,81	1,73	1,79	1,78
30.04	1,77	1,76	1,67	1,73	1,72
10.05	1,70	1,69	1,60	1,66	1,65
20.05	1,64	1,63	1,54	1,60	1,59
30.05	1,64	1,63	1,54	1,60	1,59
10.06	1,59	1,58	1,50	1,55	1,54
20.06	1,51	1,50	1,42	1,47	1,46
30.06	1,29	1,41	1,37	1,42	1,41
10.07	1,24	1,36	1,32	1,37	1,36
20.07	1,20	1,32	1,28	1,33	1,32
30.07	1,18	1,30	1,26	1,31	1,30
10.08	1,14	1,26	1,22	1,27	1,26
20.08	1,14	1,26	1,22	1,27	1,26
30.08	1,10	1,22	1,18	1,23	1,22
10.09	1,20	1,32	1,28	1,33	1,32
20.09	1,29	1,41	1,37	1,42	1,41
30.09	1,51	1,62	1,58	1,63	1,62
10.10	1,61	1,75	1,69	1,67	1,76
20.10	1,72	1,89	1,78	1,88	1,83
30.10	1,94	2,03	1,97	2,04	1,98

1-jadval ma'lumotlarga qarasak sizot suvlar sathi yer yuzasida eng yaqin variyat egatlab sug'orish nazorat variyantida qayd qilgan. Sizot suvlar sathi vegetatsiya davrida o'zgarib turdi. Bunga asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish vaqtiga to'g'ri keldi.

Tajriba dalasida sizot suvlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, quruq qoldiq, vegetatsiya boshida nisbatan vegetatsiya oxirida ortib borishi kuzatildi.

**Tajriba o'tkazilgan yilda tajriba dalasida joylashgan kuzatuv quduqlari sizot suvlarning minerallashganlik darajasi, g/l ( Kungaboqarning "NS LEVIATAN" navi ekilgan dala maydoni) 2021 -yil**

**2-jadval**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2021 yil</b>		
	<b>bahorda</b> <b>01.04</b>	<b>yozda</b> <b>01.07</b>	<b>kuzda</b> <b>10.09</b>
<b>1- QUDUQ</b>			
Quruq qoldiq g/l	3,93	4,27	4,61
Xlor, %	0,34	0,32	0,37
<b>2- QUDUQ</b>			
Quruq qoldiq g/l	4,04	4,29	4,36
Xlor, %	0,33	0,32	0,33
<b>3- QUDUQ</b>			
Quruq qoldiq g/l	3,98	4,25	4,37
Xlor, %	0,34	0,31	0,32
<b>4- QUDUQ</b>			
Quruq qoldiq g/l	3,91	4,15	4,29
Xlor, %	0,34	0,29	0,31
<b>5- QUDUQ</b>			
Quruq qoldiq g/l	3,96	4,19	4,31
Xlor, %	0,33	0,28	0,29

Tajriba dalasidan olingan natijalardan kelib chiqib shuni takidlash joizki sug‘orish texnologiyalarining tomchilatib va plyonka ostidan tomchilatib sug‘orishga o‘tishi tajriba dalasidan turli darajada mineralashgan sizot suvlarini oladigan qabul qilib oladigan zovurlarning mineralizatsiyasini o‘zgarishiga ta’sirini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar olib borilgan dala tuprog‘i, sizot suvlari mineralizatsiyasi vegetasiya davomida sug‘orishdan oldin va sug‘orishdan keyin tahlil qilinganda quruq qoldiq va boshqa tuzlar miqdori o‘zgarib turganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda resurstejamkor sug‘orish texnologiyalarni joriy qilish orqali nafaqat resurslarni tejash shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini barqaror oshirishga zamin yaratadi. Ekin maydonlarida qishloq xo‘jaligi ekinlarining extiyojidan ortiqcha berilgan suv sababli, maydonlardagi tuproqlarning mineralizatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Tomchilatib va plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish natijasida sizot suvlar sathi vegetatsiya davrida kiritik chuqurlikdan quyidan joylashdi. Bu esa tuproqlarning ikkilamchi sho‘rlanishini oldini oldi. Suvtejamkor sug‘orish texnologiyalari qo‘llanilgan maydonlarda oziqa moddalarining yuvishlishi keskin kamayishi natijasida, tuproqdagi mineral moddalar nazorat variyantiga nisbatan 40 % gacha ko‘proq saqlanishiga erishildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Isaev S, Qodirov Z, Saylikhanova M, and Fozilov Sh 2021 Influence of elements of irrigation technology of medium and late varieties of soybean on soybean yield *IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science* 937 022129 doi: 10.1088 / 1755-1315 / 937/2/022129.
3. Amu-Buxoro ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya tashkilotining texnik hisoboti 2022-yil.

## AIR TRANSPORT SERVICE IN THE FIELD OF TOURISM

**Salimova Muyassar Abdulla qizi**

Tashkent State University of Economics

Assistant teacher of the tourism and service department

E-mail: [muyasabdushkur@gmail.com](mailto:muyasabdushkur@gmail.com)

**Abstract:** *Transport is one of the most important components of the material base of the economy of any country. The main share in the total composition of transport services belongs to air transport. Most tourists, especially long-distance travelers, use aviation services.*

**Key words:** Air transport, air containers, aviation, service share.

Nowadays, transport is one of the most important components of the economy of a developing country with a highly developed economic and social base. Transport ensures the normal operation of the economy, increases the efficiency of social production, creates conditions for the rational distribution of production forces throughout the country, taking into account the most appropriate approximation of enterprises in various sectors of the economy to the sources of raw materials and raw materials. It allows the development of industries such as areas of product consumption, production specialization and cooperation, and trade. Transport is the leading factor of tourism development. Transport has a great role in solving social problems, ensuring business, cultural and tourist trips of the population, developing cultural exchange within the country and abroad.

Transport ensures the development of international transport. And economic relations facilitate mutually beneficial exchanges between different countries. Historically, the formation of transport systems of different countries is influenced by

their geographical location, natural potential, and often climate and landscape features. This led to the formation of transport and technical bases that are most rationally used in the conditions of a certain region and state.

With the development of tourism, transport routes are constantly expanding, because the increase in demand for travel has a positive effect on the development of transport infrastructure. Transport, in turn, allows to expand the geography of travel. There is a beneficial and beneficial cooperation between the two parties. Transport services are one of the main types of services in tourism. They occupy the main share in the price structure of the species. Depending on the duration and distance of the trip, this share (in most cases) is from 20 to 60%. The main share in the total composition of transport services belongs to air transport. Most tourists, especially long-distance travelers, use aviation services. At the same time, the plane can be called, in a figurative sense, the transport of individuals. The largest flow of tourists traveling for resort, business, entertainment and educational purposes are individual tourists. And they often use air transport.

According to statistics, the growth rate of popularity of air transport is higher than that of road transport, which is related to the expansion of the geography of travel and the existing stable trend to reduce travel time in favor of their frequency (growth). short-term long-term trips).

All this is the reason why the tourist business pays great attention to air transport. Airplanes are the most popular mode of transportation in the world. The same can be said about air travel in tourism, and there are several reasons for this:

- Aviation is the fastest and most convenient form of transport for long-distance travel;
- Service on flights has an attractive appearance for tourists;
- Airlines, directly and through international booking and booking networks, pay travel agencies a commission for each seat booked on the plane, which encourages them to choose air transport.

To start talking about the advantages and disadvantages of air travel advantages and disadvantages of air travel, we need to come to define air transport, passengers,

cargo, which is a service that helps us move from one place to another. Air transport is for commercial purposes, and originally this type of transport was only intended for the movement of people. As the design of both air containers and cargo-only aircraft has changed, the volume of cargo has increased significantly. In addition, advances in navigation as well as telecommunications have allowed this to develop tremendously.

Among the advantages of air travel, we can note the following:

- Speed and delivery time make this type of flight more frequent.
- You can cover multiple destinations and have the option of air transfers for easy access.
- This type of transport is more secure and reduces the possibility of theft.
- If the cost of transportation is significant, the transit time of goods will be reduced.

Disadvantages:

- The cost you have to pay for this type of transportation is higher than land and sea.
- Air transport has more cargo and storage capacity than land transport, but sea transport has more.
- In this case, there are restrictions on the products we can transport by air.
- Climate factors have a major impact on air transport as they can be at risk of flying in adverse weather conditions.

Significance.

- Air transportation is one of the most important because it is the safest means of transportation available today. It has great achievements in the field of telecommunications, which guarantees its security.

Reservation of seats and purchase of air tickets through airlines;

- booking seats and purchasing air tickets through reservation systems;
- agreement with the airline on the quota of seats in regular airlines;
- agency agreement and work as an agency for the sale of air tickets for their tourists;
- organization of charter flights for transportation of tourists.

In order to correctly choose the most convenient and profitable part of the transportation of tourists, as well as to conclude an agreement on the transportation of

tourists by air, you need to know all the features, advantages and disadvantages of one or another type of interaction with an airline.

Also, the travel agency should know the rules for booking air tickets, promotions, rates and discounts provided by airlines.

### **References:**

1. Turizmda-transport-xizmatlari.-Oquv-qollanma.B.SH\_.Safarov-N.E.Ibadullaev-va-boshq.T-2019.p
2. Norchaev\_A\_N\_Turizmda\_transport\_xizmatlari\_O‘q\_2020.pdf
3. Interjournal.uz IQTISODIYOT+VA+TURIZM+№2-87-91%20(1).pdf
4. Safarov B.Sh., Ibdullayev N.E., Daminov M.I., Karimov.A.A. "Turizmda transport xizmatlari. "O‘quv qo‘llanma T.: «Fan va texnologiya», 2019 y.-250 b.
5. Stephen J.Page. Transport and Tourism: Global respects, Third ed.Harlow(England); London;New York (etc).Pearson Education Limited.2009.
6. Gross,S.,Klembel,L.(Eds.) Introduction to tourism transport. CABI.2004
7. Tuxliyev I.S., R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunova "Turizm asoslari". Darslik. T.: «Fan va texnologiya», 2014y. -439 b.
8. Будко И.И «Транспортное обслуживание туризма» Учебное пособие, М.:2006.
9. Гуляев В.Г “Организация туристских перевозок”Учебное пособие .Москва

### **Used websites:**

1. <https://hotel-all.ru/uz/moscow/ispolzovanie-vozdushnogo-transporta-v-turizme-aviacionnyi>
2. <https://www.postposmo.com/uz/havo-transportining-afzalliklari-va-kamchiliklari>
3. <https://advice.uz/oz/category>

## NOAN'ANAVIY UGLEVODOROD RESURSLARI

**Usmonov Kuvonchbek Mannonovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

[quvonch\\_uz2@mail.ru](mailto:quvonch_uz2@mail.ru)

*Annotation.* Uglevodorodlar xususiyatlari o‘zgarishining fizik qonuniyatlarini mukammal tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday qonuniyatlar chiqarib olingan neft va gazning miqdorini to‘g‘ri hisoblashga imkoniyat beradi.

**Kalit so‘zlar:** An’anaviy, noan’anaviy, og‘ir neft, tabiiy bitum, yonuvchi slanslar, kollektorlar, g‘ovaklik, flyuid.

Tabiiy suyuqliklar va gazlarning fizik xossalari o‘rganishda birinchi navbatda bir komponentli oddiy sistemalarning holati va xarakterining o‘zgarish tafsilotlarini bilish kerak. Ma’lumki, bir komponentli uglevodorodlar tabiatda toza holda uchramaydi, shuning uchun ularni uglevodorodli sistemalarni qayta ishlab olish mumkin. Ammo bir komponentli uglevodorodlarning fizik xossalari va ularning o‘zgarish xarakteri bosim va haroratga bog‘liq bo‘lgani uchun sifat jihatidan ular murakkab sistemaga o‘xshaydilar. Binobarin, ularni o‘rganishda ayrim uglevodorodlarga tegishli fizikaviy kimyoning va termodinamikaning asosiy qonun-qoidalardan foydalanish mumkin.

Uglevodorodli sistemalar boshqa sistemalar singari gomogen (bir jinsli) va geterogen (ko‘p jinsli) bo‘lishi mumkin. Gomogen sistemada uning hamma qismlarining fizik xususiyatlari bir xil (bir jinsli) bo‘ladi. Geterogen sistemada esa, aksincha uglevodorodlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari har bir nuqtada turlicha bo‘ladi.

Geterogen sistema bir qancha fazalardan iborat. Har bir faza sistemaning ma'lum qismini tashkil etadi. Bu gomogen bo'lib, boshqa fazalardan aniq chegaralar bilan (masalan, geterogen sistema: muz, suv va suv bug'i) ajralib turadi.

Shuningdek, neft-gazli qatlamda geterogen sistema mavjud bo'lib, u gaz, neft va suvdan iborat bo'ladi. Shu boisdan uglevodorodlar xossalariini tadqiq qilish bilan birga, suvning xossalariini ham o'rghanish zarurdir. Chunki, suv qatlamning bir qismini tashkil etadi, neftni olishni osonlashtiradi hamda neft va gaz bilan birgalikda chiqarib olinadi.


Neft qazib chiqarish sanoatida hozirgi kunda yengil va o'rtacha zichlikdagi neft qazib chiqarishning pasayib borishi kuzatilmogda. An'anaviy neft zaxiralarining kamayib borishi neft kompaniyalarining ko'proq e'tiborini uglevodorodlarning noan'anaviy manbayiga qaratmoqda. Bunday manbalardan biri, og'ir neft va tabiiy bitumlar bilan bir qatorda, yonuvchi slanslar hisoblanadi. Ularning mavjud hajmi ochilgan neft zaxiralaridan anchagina katta.

Avvalo neft va gazning "an'anaviy" va "noan'anaviy" manbalari tushunchasiga oydinlik kiritish lozim. Hozirgi kunda neft va gaz manbalarining "an'anaviylik" va "noan'anaviylik" tushunchasiga aniq chegara mavjud emas.

1979-yilda Monrealda (Kanada) o'tkazilgan energetik resurslar bo'yicha Xalqaro konferensiyada uglevodorodlarning "an'anaviy" manbalariga yengil va o'rta neft uyumlari, tabiiy gazlar va ularning tarkibidagi kondensatlar, "noan'anaviy" larga esa – qattiq bitumlar (asfaltdan keritgacha), og'ir neftlar, shuningdek suyuq va gazsimon to'plamlar kiritilgan. 1976-yilda Lyuksemburgda (Avstriya) energetik resurslar bo'yicha I-Xalqaro konferensiyada manbalarning "noan'anaviy" resurslariga konlarni ishlatishning uchlamchi va yanada qimmatbaho usullarini tadbiq etish natijasida olinishi mumkin bo'lgan neft resurslari, mustahkam tog' jinslaridagi gaz resurslari kiritilgan.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, uglevodorod xomashyolarining "an'anaviy" va "noan'anaviy" manbalari orasidagi chegara juda shartli. Genetik va fizik-geologik nuqtai nazardan suyuq va gazsimon uglevodorodlarning "noan'anaviy" to'plamlari ko'pincha mutlaqo noodatiy hisoblanmaydi. Bu to'plamlarning barchasi

uchun ahamiyatli murakkablik yoki hatto ularning resurslarini o‘zlashtirish texnika va texnologiyasini yaratilmaganligi va shunga muvofiq olinadigan mahsulot narxining juda yuqoriligi xarakterli. Boshqacha so‘z bilan aytganda, neft va gaz manbalarining “noan’anaviy” resurslari – bu zamонавиј шароитларда о‘зласhtirish texnik jihatdan qiyin (mushkul) va iqtisodiy norentabel resurslardir. Bu ma’noda “noan’anaviy” manbalar resurslariga borish qiyin bo‘lgan manbalar resurslarini ham kiritish lozim. Bu resurslar guruhi juda o‘zgaruvchan, beqaror: neft va gazga narxlarning o‘sishi va qimmatbaho uglevodorod manbalarini sanoat ahamiyatida o‘zlashtirilishi bilan ularning bir qismi tobora odatiy, “an’anaviy” bo‘lib boradi.



**1-rasm. Uglevodorod xomashyoning noan’anaviy zaxiralarini fazoviy holati**

Shuni qayd etish lozimki, xususiy uglevodorod xomashyo manbayining “an’anaviy” resurslari juda yetishmaydigan va barqaror importni amalga oshirish imkoniyati bo‘lmagan davlatlarda “noan’anaviy” manbalar resurslari ahamiyatli hajmda qazib chiqarilishi va bunday davlatlar uchun “an’anaviy” manbalar resurslari hisoblanishi mumkin. Bunday vaziyat resurslarning manbalarini “an’anaviy” va “noan’anaviy”ga ajratishning shartliyligini yana bir bor ta’kidlaydi va ularning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi mumkinligidan dalolat beradi.

2014-yilda Kazanda (Rossiya) “Трудноизвлекаемые и нетрадиционные запасы углеводородов: опыт и прогноз” mavzusida o‘tgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada professor R.X.Muslimov ma’ruzasida quyidagicha ta’kidlagan: “hozirgi vaqtgacha “noan’anaviy” sanalgan zaxiralalar endi “an’anaviy” bo‘lib qoladi, chunki uglevodorodlarning “an’anaviy” zaxiralari ishlatalishning yakuniy bosqichida turibdi”.

Shunga bog‘liq holda aytish mumkinki, uglevodorodlarning zarur bo‘lgan qo‘sishimcha resurslari odatda noan’anaviy deb yuritiladi. Chunki ulardan energiya olish uchun neft va gazning an’anaviy resurslarini o‘zlashtirishda foydalaniladiganidan farq qiladigan texnologiyalar va usullarni qo’llashni talab qiladi. Noan’anaviy resurslar og‘ir neftni, asfaltli (bitumli) qumlar yoki asfaltlar, yonuvchi slanetslar, mustahkam kollektorlardagi gazlar, ko‘mir gazi va gazgidratlarni o‘z ichiga oladi. Uglevodorod resurslar yer qa’rida noadatiy fazoviy holatda joylashgan (1-rasm).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yarboboyev T.N., Usmonov K.M., Axmedov Sh.Sh. Neft va gaz geologiyasi va geokimyosi. Darslik. Qarshi-2023.

2. Аллабергенов Р.Д., Ахмедов Р.К. Горючие сланцы Узбекистана: инновация и диверсификация. // Сб.тр. Республиканской научно-технической конференции (8-9 ноября 2012, г.Ташкент) «Актуальные проблемы переработки нефти и газа Узбекистана». - Т.: (ИОНХ АН УРУз), 2012.

3. Грушевенко Е.В., Грушевенко Д.А. Сланцевая нефть: технологии, экономика, экология. // ИНЭИ РАН, Экологический Вестник России. – 2013.

4. Яраханова Д.Г. Ресурсы нетрадиционных углеводородов. // Материалы Международной научно-практической конференции “Особенности разведки и разработки месторождений нетрадиционных углеводородов”. Казань 2015.

5. Горючие сланцы и сланцевая нефть. Новая жизнь старых запасов. // <http://vseonefti.ru/neft/slancevaya-neft>. 2018.

**OLLOQULIXONNINNG ME'MORCHILIKDAGI QILGAN ISHLARI.**  
**"TOSH HOVLI SAROYI" TARIXI.**

**Rajabova Saodatjon Matvapayevna**

"Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi "Xorazm Hunarmandchilik tarixi"  
bo'limi ilmiy xodimi

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Xiva xonligida munosib o'runga ega bo'lgan Olloqulixonning qurilish, ta'mirlash ishlari va obodonchilighaqida, Shuningdek, Olloqulixon tomonidan qurdirilgan Tosh hovli saroyining tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** Ko'hna Ark, Olloqulixon, Muhammad Yoqub Mehtar, Tarh, Arzxona, vassa.

**WORKS OF OLLOQULIKHANNIN IN ARCHITECTURE. HISTORY OF  
"TOSH HOVLI" PALAS.**

**ABSTRACT**

*In this article, the construction, repair and beautification of Ollaquli Khan, who had a worthy place in the Khiva Khanate, and the history of the Stone Yard Palace built by Ollaquli Khan are briefly discussed.*

**Keywords:** Kokhna Ark, Ollaquli Khan, Muhammad Yaqub Mehtar, Tarh, Arzhkhana, etc.

1825-yil 7-mayda 50 yoshda bo'lgan Muhammad Rahimxon I vafot qildi. Uning o'rniga taxtga ko'tarilgan o'g'li Olloqulixon (1795-1842) xonlikning hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlash ishlarini davom ettirdi.

Siyosiy-iqtisodiy muammolar bilan shug'ullanish bilan bir qatorda Olloqulixon otasi Muhammad Rahimxon davrida boshlangan qurilish va obodonchilik ishlarini

davom ettirdi. Xon buyrug‘i bilan Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko‘hna Ark koshinlar bilan bezatildi. Ilgaridan Xivada bo‘lgan Sayyid Alovuddin maqbarasi tamirlanib, Arabxon va Muhammad Amin Inoq madrasasi qaytadan tiklandi.

1832-1838-yillarda Olloqulixon tog‘asi Qutlug‘ Murod inoqning jasadini o‘zi bunyod qildirgan madrasa hovlisiga dafn qilish niyatida buzulgan qal‘a devori o‘rnida kata hovli, madrasa va karvonsaroy qurishni boshladi. Ushbu ulkan inshootlar qurilishiga bosh qilib Muhammad Yoqub Mehtar tayinlandi va unga Muhammad Rizo Qushbegi yordam berib turdi. Marmar, pishiq g‘isht, yog‘ochdan qurilgan binolarni tiklashda eng qobilyatli xalq ustalari – Nurmuhammad usta Toji, Qalandar Xivakiy, Abdulla Jin boshchiligidagi usatalar va mingdan ortiq qullar mehnat qildilar. Darvozalari koshinlangan, ganch, yog‘och, tosh o‘ymakorligi, bo‘yama naqshlari bilan bezatilgan.

Ro‘y berayotgan qaltis siyosiy vaziyatni e’tiborga olgan Olloqulixon Xurosonga yurish qilib, 20 ming eronliklarni bandi qilib qaytdi va ularning mehnati bilan Xiva shahrining mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirishga harakat qildi. Natijada, 1842-yilda Olloqulixon buyrug‘i bilan Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod Matrizo qushbegi boshchiligidagi Ichan qal‘aning tashqi qismida uzunligi 6614 va balandligi 4metrli yangi mudofaa devori tiklandi. Qurilishi 30 kun davom etgan devorni Muhammad Rizo Ogahiy “Xisori xush bino” deb baholadi. Endilikda xonning Rafanik va Nurullaboy degan joydagi bog‘lari ham shahar tarkibiga kirdi. Shu davrlardan boshlab Xiva shahri hududi Dishan va Ichan qal‘a degan nom bilan ajratiladigan bo‘ldi.

Olloqulixon tomonidan qurdirilgan “Tosh-hovli” saroyi haqida to‘liq to‘xtaladiga bo‘lsak quyidagilarni keltirish mumkin.

Tosh hovli saroyi Xivadagi tarixiy me’moriy yodgorlik. Xiva xoni Olloqulixon amri bilan qurilgan (1830-1838-yillar). Xalq ustalari Nurmuhammad usta Toji va usta Qalandar Xivakiy tomonidan bunyod etilgan. Tosh-hovli saroyi 3 ta hovli, 5 ta katta ochiq ayvon, 111 ta xonadan iborat. Arzxona (darvozasi g‘arbga), mehmonxona hovli (janubga), haram (darvozasi g‘arbga qaragan). Xorazm mahalliy turar joy

me'morligiga xos uslubda, shahar tashqarisidagi qo'rg'onhovli ko'rinishida bo'lganligi uchun Tosh-hovli deb nomlangan. Atrofi baland devor (qalinligi 1,2—1,5 m) bilan o'ralgan. Devor tepasi kungurali, darvoza yonlari guldastali. Dastlab haram bunyod etilgan. Tarhi 80×42 m, hovlisi 49×15 m, janubiy qismida 5 ta alohida-alohida ayvon (xon va uning 4 xotiniga mo'ljallangan) bor, ulardan xonalarga dahlizlar orqali kiriladi.

Olloqulixon buyrug'i bilan 1837-1838-yillarda Tosh hovli saroyida Arzxona barpo etilgan. Qurilishni ikki yilik qisqa muddatda tugallash mumkin emasligini aytishga jurat etgan naqqosh Nurmuhammad usta Tojixon qatl qilingan. Ustaning fojiali o'limidan keyin qurilishni Qalandar Xivakiy davom ettirgan.

1838-1840-yillarda Muhammad Rizo qushbegi va Imom qushbegi nazorati ostida Qutliq Murod inoq madrasasi oldidagi Oq masjid va hammom binolari qayta ta'mirlangan. 1657-yilda Abulg'ozi Bahodirxon o'g'li Anushaxon sharafiga qurilgan ushbu imoratlar yillar o'tishi bilan ta'mir talab bo'lib qolgan va atrofida tiklanayotgan yangi imoratlar esa ularning ko'rkini pasaytirmasligi lozim edi.

Mehmonxona haramning janubi-sharqiy qismida qurilgan. 3 yildan so'ng janubi-g'arbiy burchagida Arzxona (tarhi  $35 \times 40$  m) qad rostlagan. Har bir hovlida alohida xizmatchilar xonasi, xo'jalik xonalari, otxona bo'lgan. Hovlilarda ayvonlar o'ziga xos uslubda joylashgan. Haramning janubida 2 qavatli bino oldiga baland qilib 1 ustunli ayvon ishlangan, arz hovli va mehmonxona hovlidagi binoning faqat 2 qavatida 1 ustunli, panjara to'siqli ayvon bor. Hovli markazidagi doira shaklli supaga chodir o'rnatilib mehmonlar kutilgan. Tosh-hovlining tashqi qismi bezaksiz, yaxlit devorli. Hovli atrofidagi ayvon va xonalarga milliy me'morlik an'analari asososan bezakk berilgan. Devordagi ustungo'shalar oralig'iga namoyonlar ishlanib, choksiz ko'k va oq koshin qoplab, girih parchinlardan naqsh hosil qilib terilgan. Mehmonxona va arz hovli devorlari namoyonlarga ajratilib, ko'k, oq va havo rang koshindan gilam nusxa mujassamot yaratilgan. Ayvon devorlaridagi girih va islimiyl naqshlar orasidagi doira shakllar ichida arabiy yozuvlar uchraydi. Marmar poyustun va o'ymakori yog'och ustunlardagi doira shakllarda Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga oid sherlari,

xon ayvonidagi sharqiy poyustunda 1832-yil va mehmonxona hovlisida katta ayvon poyustunida, arz hovli katta ayvon bezaklari orasida 1838-yil hamda usta Abdulla jin nomi saqlangan. Tosh-hovlidagi xonalar tomi to'sinli, haram va mehmonxona hovli ayvonlari hovuzakli, xo'jalik xonalari tomiga qamish bostirib loysuvoq qilingan, ba'zilari vassa shiftli. Xona ichki bezaklari ancha sipo, devor hoshiyalarida, shakldor taxmonlarda, shift osti sharafasi, muqarnas kosachalari ganchkori bezakda, mevali daraxt shoxi va gullar qora, ko'k va qizil tusda ifodalangan. Hozirgi davrda Tosh-hovli saroyida arzxona va mehmonxona qismlarida "Xorazm hunarmandchilik tarixi" bo'limi joylashgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Ahmedov B.A. Новые сведения о Хиве// «ОНУ» – Ташкент,1982.
2. Muhammadrizo Ogahiy. Riyoz ud-davla// Asarlar, V jild. – Toshkent: Fan,1978.
3. Svedeniya o Xivinskom xanstve. Vir. iz jur. —Manufaktur i torgovlya. 1843.
4. Кун А.Л. Заметки о податях в Хивинском ханстве// Туркестанские ведомости, 1873

## KIBERXAVFSIZLIKDA RISKLARNI BAHOLASHNI TAHLIL QILISH

**Polvonov Baxtiyor**


Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali dotsenti  
**O‘rinboyev Alisher**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlanayotgan kiberxavfsizlik sohasida riskni baholash usullarini va axborot tizimini himoya qilish zarurligini o‘rganish haqida ma’lumotlar berilgan. Yuqori sifatli texnikani qo’llash orqali xavflarni hisoblashni amaliy va nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** xavfsizlik, kiberxavfsizlik, risk, tahdid, razvetka.

Barcha tahdidlarni hisobga olish kerak, lekin birinchi navbatda tasodifiy va qasddan qilingan insoniy harakatlar bilan bog‘liq. Aktivlarni himoya qilishda ularning egalari manfaatdor. Biroq, bu aktivlar egalari manfaatlariiga zid ravishda o‘z maqsadlari uchun aktivlardan foydalanishga intilayotgan jinoyatchilar uchun ham qiziqish uyg‘otadi. Xavfsizlik buzilishi odatda (faqat ushbu toifalar bilan cheklanmagan): ruxsatsiz oshkor qilish (maxfiylikni yo‘qotish), ruxsat etilmagan modifikatsiya (yaxlitlikni yo‘qotish) yoki aktivlarga ruxsatsiz kirishdan mahrum qilish (mavjudlik yo‘qolishi).



1 -rasm - Xavfsizlik kontseptual tushunchalari sxemasi va ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Aktiv egalari riskni tahlil qilishlari kerak, ya’ni. tahdidlarni, zaif joylarni, har bir tahdidni va qarshi choralarini amalga oshirishdan mumkin bo‘lgan zararni aniqlash. Mulk egasi tomonidan talab qilinadigan aktivlar xavfsizligi siyosatini amalga oshirish uchun, buzg‘unchilar ularni ishlatishi mumkinligi sababli, zaifliklar sonini kamaytirish uchun choralar ko‘rish kerak.

Tizim (mahsulot) ishga tushirilishidan oldin ham AT egasi tahdidlarga qarshi choralar samaradorligini baholashdan manfaatdordir. Bunday baholashning natijasi-qarshi choralar aktivlar uchun riksni kamaytiradigan kafolat darajasi to‘g‘risida xulosa. Kafolat AT tizimining (mahsulot) xavfsizlik muammolariga javob berishiga ishonch hosil qilish uchun asoslidir.

Sifatli metodologiya umumiy va maxsus baholashlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu tashkilot rahbariga kelajakda himoya xarajatlarini baholab, tashkilot ichida aylanayotgan maxfiy ma’lumotlarni raqobatchilardan himoya qilish zarurligi to‘g‘risida asosli qaror qabul qilish imkonini beradi. Texnika sizga maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish zarurligini tezkor vaadolatli baholashga imkon beradi va shu asosda tezda tegishli qarorni qabul qiladi, ya’ni rahbarga katta tijorat muvaffaqiyatsizliklari va foyda yo‘qotishdan saqlanish imkonini beradi. raqobatchilar uchun ma’lumotlarning mavjudligi.

Tashkilot ichida aylanayotgan maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish zarurligi to‘g‘risida qaror tashkilot rahbariyati tomonidan qabul qilinishi kerak. Hech kim menejment, tashkilot sirlarini himoya qilish kabi choralarga qiziqmaydi va hech kim tashkilotda aylanayotgan ma’lumotlarning butun majmuasini, uning maxfiylik darajasini, ichki va tashqi holatini, uning asoschisi sifatida bilmaydi.

Texnika ikkita o‘zaro bog‘liq qismidan iborat. Birinchi qism, so‘rov natijalarini qayta ishlash asosida, tashkilotda aylanayotgan ma’lumotlarni himoya qilish kerakmi yoki yo‘qmi degan savolga, ikkinchi qismi esa, agar ijobiy hal qilingan bo‘lsa, javob berishga imkon beradi. Birinchi savol, yaqinlashib kelayotgan axborotni himoya qilish xarajatlarini taxminiy baholash imkonini beradi.

Tashkilot asoschisining qiziqishi, malakasi va dunyoqarashini hisobga olgan holda, iloji boricha tashkilot asoschisining bilimlari, tajribasi va fikrini hisobga oladigan usul taklif etiladi. Metodologiyaning birinchi qismi keyinchalik uning natijalarini qayta ishlash bilan anketa so‘rovi usuliga asoslangan.

Bu usulni amalga oshirish uchun tashkilot asoschisi uchun tashkilot faoliyatining unda aylanayotgan ma’lumotlar bilan bog‘liq barcha jihatlarini qamrab oladigan so‘rovnomalari savollari ro‘yxati ishlab chiqilgan.

Anketa savollari shunday tuzilganki, ular uzoq javoblarni talab qilmaydi, balki "ha", "yo‘q" munosib javoblarga aylanadi. Anketani to‘ldirish axborot xavfsizligi sohasida maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi va qiyinchilik va ko‘p vaqt talab qilmaydi. Anketa savollarini ishlab chiqishda va keyinchalik axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar ishtirokida so‘rov natijalarini qayta ishlashda axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus bilimlar hisobga olingan.

Anketa savollariga berilgan javoblarni matematik tarzda qayta ishlash orqali holat va qo‘sishimcha himoya zarurligiga miqdoriy baho olinadi. Shu maqsadda, anketaning har bir savoliga maxfiy ma’lumotlarni himoya qilishning umumiyligi tizimiga qo‘sghan hissasini raqamli ifodalovchi og‘irlilik qiymati beriladi. Og‘irlilik koeffitsientlarining qiymatlari ekspert usuli bilan olingan.

Anketa natijalarini qayta ishlashda siz tashkilotdagi himoya holatining umumiyligi bahosini ham, himoya sohalarida bir qator shaxsiy baholarni ham olishingiz mumkin. Barcha baholar yig‘indisi menejerga, oxir -oqibat, xavfsizlik, tashkiliy va texnik tadbirlarni o‘tkazish orqali himoyani tashkil etish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilishga imkon beradi. Himoyalashning har bir komponenti bahosini tahlil qilish asosida, axborot himoyasi ta’milnagan va raqobatchining uni ushlab qolish ehtimoli (oqish) qabul qilinmaydigan darajada yuqori bo‘lgan havolalar aniqlangan. Bunday tahlilni o‘tkazgandan so‘ng, tashkilot rahbari maqsadli ravishda aniqlangan sohalarda axborot oqishini bartaraf etish ishlarini olib borishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muxtarov, F., & Sadirova, X. (2023). Korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy usullari. *Engineering problems and innovations*.
2. Nabijonov, R., & Ergasheva, A. (2023). Masofaviy o'qitish tizimlarini ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/44>
3. Muxtarov, F., & Tojidinov , A. (2023). Tarmoq xavfsizligini url filtirlash bilan yaxshilash. *Research and Implementation*, 1(4), 39–44. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/890>
4. Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o'g'li. (2022). Media portal yaratishning asosiy afzallik va kamchiliklarI . *World Scientific Research Journal*, 10(2), 125–131. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2379>
5. Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o'g'li, Azamov Shohruhmirzo Alisher o'g'li, & Ergasheva Asaloy Dilmurod qizi. (2022). TRACE MODE texnologiyasi. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 1(2), 106–112. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/246>
6. Muxammadjon o'g'li, N. R., Mavlonjon o'g, M. J. M., & Erali o'g, T. Y. A. (2022). Tibbiyotda qo'llanadigan zamonaviy kompyuter tizimlari klassifikatsiyasi.
7. Nabijonov , R., Ergasheva , A., Ibrohimova , N., & Azamov , S. (2023). Masofaviy ta'limda internet tizimlari afzalliklari va ulardan xavfsiz foydalanish usullari. *Research and Implementation*, 1(4), 31–38. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/881>
8. Nabijonov , R., Azamov , S., Ergasheva , A., & Ibrohimova , N. (2023). Biznesni avtomatlashtirishning bugungi kundagi ahamiyati. *Research and Implementation*, 1(4), 16–24. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/879>

9. Nabijonov , R., Ibrohimova , N., Azamov , S., & Ergasheva , A. (2023). Bulutli texnologiyalar tizimida axborot xavfsizligi. *Research and Implementation*, 1(3). извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/877>
10. Nabijonov , R., & Azamov , S. (2023). Kompyuter tarmoqlariga tahdid qiluvchi masofaviy hujumlar tahlili. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/884>
11. Nabijonov , R., & Ibrohimova , N. (2023). Flutter frameworkidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/883>
12. Nabijonov , R., & Rasulov , A. (2023). Zamonaviy media portal imkoniyatlaridan unumli foydalanish. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/767>
13. Xonto‘rayev, S. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida Web resurslarda mavjud dasturiy, texnik va uslubiy muammolarni bartaraf etish. *Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, Т. 27. спец. выпуск № 2)*.
14. Обухов, В., Ходжиматов Ж., & Набижонов , Р. (2023). Развитие блокчейн технологий в узбекистане: современные вызовы и перспективы. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/768>

## **TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ELEKTRON AMALIY DASTURIY PAKETLARNING AHAMIYATI**

**Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o‘g‘li**


Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali assistenti

**Mamayeva Oydinoy Ismoiljon qizi**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

Bugungi kunda ta'lif jarayonini axborotlashtirishda asosiy diqqat, samarali multimediali o'quv kurslari ishlab chiqarishga qaratilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda tekstografik elektron mahsulotlar o'rniga interaktiv, multimedia manbalariga boy elektron resurs qo'llanilmoqda. Oliy ta'limda fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan elektron darsliklarning interaktivligi, multimediya manbalariga boyligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Elektron amaliy dasturiy paketlar, ta'lif sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan vositalardir. Bu paketlar, o'quvchilarga interaktiv o'rghanish imkonini beradi, ularga ma'lumotlarni amaliyotga o'tkazish va o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish, tushunish va ilovalash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Elektron amaliy dasturiy paketlarning ahamiyatini bir qancha muhim faktorlari bor. O'quvchilarga o'zlarining o'z vaqtida va o'z o'rghanish tempida ilovalarni o'rgatish imkonini beradi. O'quvchilar, o'zlariga mos keladigan tempda va o'zlashtirishga yo'l qo'yadigan dasturlardan foydalanishlari mumkin. Bu paketlar, interaktiv testlar, masalalar, mashg'ulotlar va vizual effektlar orqali o'quvchilarni o'zlashtirish va tushunishga qaratadi. Bu interaktivlik o'quvchilarga o'rghanish jarayonida motivatsiya va qiziqishni oshiradi. Paketlar orqali o'quvchilar o'zlarining o'rgangan konseptlarni amaliy mashg'ulotlar, dasturlash vazifalari, model yaratish va boshqa amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlashlari mumkin.



1-rasm. Multimedia yo‘nalishlari.

Основными целями здоровьесбережения на уроках, в том числе уроках информатики, являются следующие: 1. создание организационно - педагогических, материально – технических, санитарно – гигиенических и других условий здоровьесбережения, учитывающих индивидуальные показатели состояния обучающегося; 2. создание материально – технического, содержательного и информационного обеспечения агитационной работы по приобщению молодого поколения к здоровому образу жизни. Для реализации данных целей необходимо решить следующие задачи: четкое отслеживание санитарно – гигиенического состояния аудитории; гигиеническое нормирование учебной нагрузки, объема домашнего задания; освоение новых методов деятельности в процессе обучения студентов, использование технологий урока, берегающих здоровье обучающихся; привлечение системы кружковой, внеаудиторной работы к формированию здорового образа жизни обучающегося.

Работа преподавателя информатики невозможна без здоровьесберегающих технологий. Не случайно первым пунктом в организации занятия на основе

здоровьесбережения стоят обстановка и гигиенические условия. Установлено, что только оптимизация санитарно-гигиенический условий способствует улучшению здоровья учащихся на 11%. Особенность занятий информатики - это постоянное использование компьютеров. И, несмотря на то, что продолжительность работы в среднем звене не более 20 минут, за это время глаза учащихся устают. Поэтому обязательно в конце работы нужно проводить простые и доступные упражнение для глаз. Моменты здоровьесбережения могут прослеживаться так же в тематике и содержании материалов занятий. Таким образом, формируется осознанное отношение обучающихся к своему здоровью, сбалансированному питанию, здоровому образу жизни.

При изучении текстового процессора Word, подготовить задания на темы, связанные с физическим здоровьем (сообщение «Влияние ПК на здоровье человека» или сочинение-рассуждение «Компьютер враг или друг здоровью» и «Вредные советы»). При выполнении творческих заданий по компьютерной графике учащимся предлагается создать копилку «Вредных советов», то есть нарисовать как нельзя себя вести при работе на ПК (с дальнейшим представлением своего проекта классу) [4, с.77]. Очень полезна и физкультминутка на уроке информатики и ИКТ. Например, физкультминутка «Имитируем работу компьютера»:

1. Вы все процессоры, которые сейчас загружаются (дети имитируют загрузку компьютера).
2. Замограл ваш монитор (имитируют монитор).
3. Мышка кнопку Пуск нажала, выбрала программу Word.
4. Пальцы наши по клавиатуре побежали (работаем всеми пальцами).
5. Вот готов наш документ (Встать у своего места, выпрямиться).
6. Включился принтер (шумовое сопровождение).
7. Идет распечатка документа ( глубокий вдох и выдох).

Изучение предмета «информатика» кроме учебника, ручки и тетради предусматривает использование компьютера, неправильно общаясь с которым

можно нанести гораздо больший вред здоровью растущего организма, чем на обычном уроке. Вопросы компьютеризации, влияние компьютера на здоровье человека являются одной из важных проблем сегодняшнего общества. С одной стороны, компьютер значительно облегчает человеку жизнь, с другой стороны влияет на все биологические характеристики человека, в первую очередь на его физическое и психическое здоровье.

Несмотря на то, что за компьютером человек сидит в расслабленной позе, однако она является для организма вынужденной и неприятной: напряжены шея, мышцы головы, руки и плечи, отсюда остеохондроз, а у детей - сколиоз. Кроме того, малоподвижный образ жизни часто приводит к ожирению. Конечно, на уроке ребенок не может просидеть такое количество времени, что у него начнется ожирение, но, тем не менее, в задачу учителя информатики входит объяснить учащимся все плюсы и минусы работы за компьютером.

Компьютер влияет на зрение, перегрузка глаз приводит к потере остроты зрения. Работа на компьютере – это огромная нагрузка на глаза, так как изображение на экране дисплея из отдельных точек, светящихся и мерцающих. При выполнении обязательных правил, предусмотренных при работе с компьютером, можно избежать отрицательного влияния на зрение.

Длительная однообразная неправильная работа кистями рук приводит к тому, что возникают онемение, слабость в пальцах, в подушечках бегают мурашки. Это может привести к повреждению кисти. Чтобы длительная работа на компьютере не привела к возникновению синдрома запястного канала, достаточно каждый час делать короткие перерывы, во время которых выполнить несколько упражнений для кистей рук.

Далеко не все пользователи делают резервные копии своей информации. Информация может быть потеряна из-за вируса, из-за поломки винчестера, иногда и самый опытный программист может нажать не ту кнопку. Потеря информации может привести к стрессу.

Таким образом, здоровьесберегающие технологии предполагают такое обучение, при котором дети не устают, а продуктивность их работы возрастает. **Учащихся необходимо научить также соблюдению санитарных норм и правил охраны труда.** К приходу учащихся класс или кабинет должен быть проветрен. Когда в помещении работают одновременно несколько компьютеров, температура всегда немного повышается, из-за этого возникает духота, у детей начинается головная боль, сонливость. **Предупреждению физической усталости способствуют физкультминутки.** На компьютерном столе каждого учащегося можно поместить памятку с упражнениями для глаз, картинки-стереограммы для разглядывания. При составлении тематического планирования учителю информатики и ИКТ необходимо предусматривать здоровьесберегающие компоненты. На уроках, в зависимости от содержания учебного материала, необходимо планировать вопросы о сохранении и укреплении здоровья, формировании здорового образа жизни. Например: составление текстов, посвященных здоровому образу жизни, разработка презентаций, плакатов и т.д. Учащиеся подбирают материал о влиянии компьютера на здоровье человека и о том, как можно снизить, или избежать вредного воздействия.

**Заключение.** Здоровьесберегающие образовательные технологии – совокупность всех используемых в образовательном процессе приемов, методов, технологий, не только оберегающих здоровье учащихся и педагогов от неблагоприятного воздействия факторов образовательной среды, но и способствующих воспитанию учащихся культуры здоровья [5, с. 5]. Понятие здоровьесберегающие технологии предполагает консолидацию всех усилий образовательного учреждения, нацеленных на сохранение, формирование и укрепление здоровья обучающихся. Здоровьесберегающие образовательные технологии можно рассматривать и как совокупность приемов, форм и методов организации обучения учащихся и студентов без ущерба для их здоровья, и как

качественную характеристику любой педагогической технологии по критерию ее воздействия на здоровье обучающихся и преподавателей.

В заключение следует сказать, что здоровьесберегающие технологии способствуют укреплению и сохранению здоровья детей, развивают их творческий потенциал, снимают стресс и повышают интерес к урокам.

### Литература:

1. Бекенаева К.С., Садуакасова Г.М. Современные педагогические технологии на уроках информатики и ИКТ / <https://kaznmu.edu.kz/wp-content/uploads/2013/05/Современные-педагогические-технологии-на-уроках-информатики-и-ИКТ.pdf>
2. Городнова Е.Ю. Здоровьесбережение на уроках информатики и ИКТ проектов // Сетевые образовательные сообщества «Открытый класс»/ URL: <http://nsportal.ru/shkola/informatika-i-ikt/library/2014/02/20/zdorovesberezhenie-na-urokakh-informatiki-i-ikt>
3. Елистратова Е.А. Применение здоровьесберегающих технологий на уроках информатики / <https://urok.1sept.ru/articles/695160>
4. Замбровская А.С. Здоровьесберегающие технологии на уроках информатики и ИКТ // Здоровьесбережение как инновационный аспект современного образования: материалы III Международной научно-практической студенческой конференции, 21.03.2016 г. – Екатеринбург, 2016. - С. 75-79. / [https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/12806/1/ziso\\_2016\\_018.pdf](https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/12806/1/ziso_2016_018.pdf)
5. Ковалько В.И. Здоровьесберегающие технологии в начальной школе 79 1-4 классы.- М.: Вако, 2004.
6. Куклина М.В. Здоровьесберегающие технологии на уроках информатики // Вестник Марийского государственного университета. 2011. <https://cyberleninka.ru/article/n/zdoroviesberegayuschie-tehnologii-na-urokah-informatiki>
7. Фазилов Ж. Интерактивные методы и сервисы на уроках информатики // Экономика и социум. 2023. №3(106). С. 709-714. <https://cyberleninka.ru/article/n/interaktivnye-metody-i-servisy-na-urokah-informatiki>

## ЭЛИТА УРУГЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Разоқов Бобирмирзо Рамазон ўғли**

Магистрант, Тошкент давлат аграр университети, ТДАУ,

E-mail: [b.razoqov@agro.uz](mailto:b.razoqov@agro.uz)

**Аннотация:** Уибду мақолада элитато уругчилик хўжаликларида инновацион технологиялардан фойдаланиши усуллари, жаҳон мамлакатларида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва ижтимоий-иқтисодий тараққиётни белгилашда уругчилик, мамлакатимизда элитато уругчилигини ривожлантиришинг ўзига хос жиҳатлари, элитато уругчилигини ривожлантиришга таъсир этувчи омиллар, уругчилик тизимининг ривожланиши босқичлари ва унда шаклланган муаммолар тизимлари кабилар юритиб ўтилган.

**Калим сўзлар:** элитато уругчилик хўжаликлари, инновацион технологиялардан фойдаланиши усуллари, жаҳон мамлакатларида озиқ-овқат хавфсизлиги, элитато уругчилигини ривожлантиришга таъсир этувчи омиллар, уругчилик тизимининг ривожланиши босқичлари.

**Кириш.** Жаҳон мамлакатларида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва ижтимоий-иқтисодий тараққиётни белгилашда уругчилик, айниқса элитато уругчилигининг ривожи муҳим аҳамиятга эга. Чунки, “дунёдаги 54 мамлакатда оиласалар моддий аҳволи даражасининг пасайиши кузатилгани, 20 дан зиёд давлат аҳолисининг асосий қисми очликдан қийналаётгани, 12 та мамлакатда аҳолининг ўртача умр кўриши қисқаргани, сўнгги йилларда дунё аҳолисининг 840 миллиондан ортиғи очликдан азият чекаётганлиги бунинг яққол далилидир”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup>Жонихов М., Раҳмонов С. Озиқ-овқат дастури: мамлакат тараққиёти, иқтисодиёт барқарорлиги ва фаровонликнинг мустаҳкам асоси.// “Халқ сўзи” газетаси, 2014 йил 7 июн.

Шу жиҳатлардан ҳам, улар фаолиятини ҳозирги бозор иқтисодиёти талабларига мос ривожлантириш объектив заруриятдир.

Дунёнинг етакчи илмий-тадқиқот муассасалари томонидан уруғчилик борасида кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Айниқса, глобал табиий-иқлим шароитларининг кескин ўзгариши ҳамда эпидемиологик вазиятнинг ёмонлашуви туфайли карантин чекловлари жорий қилиниши натижасида, ушбу муаммолар янада кескинлашмоқда. Жумладан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ҳамда истеъмолчиларга талаб даражасида етказиш, яъни, уларни ташиш, сақлаш, қайта ишлаш ва сотиш тизими билан боғлиқ турли қийинчиликларни келтириб чиқармоқда. Бу эса ердан унумли фойдаланиш, озиқ-овқат маҳсулотлари етиштиришни кўпайтириш ҳамда уларни истеъмолчиларга етказиб бериш бўғинларини ривожлантириш, қўшилган қиймат занжири субъектлари ўртасидаги интеграция ва кооперация муносабатларини бозор иқтисодиёти талабларига мослаштириш, айниқса мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш каби долзарб муаммоларга алоҳида эътибор қаратишни тақозо этади.

Республикамизда уруғчилик хўжаликларини ривожлантириш ва давлат томонидан қўллаб-қувватлашга доир ташкилий-иқтисодий ислоҳотлар изчил амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Қишлоқ хўжалиги экинлари уруғчилигини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-106-сонли қарор билан аҳолининг тадбиркорлик ва доимий даромад келтирувчи фаолият билан шуғулланишини йўлга қўйиш мақсадида қишлоқ хўжалиги экинлар уруғчилигини ривожлантириш вазифаси қўйилган бўлиб, бу бевосита барча турдаги уруғчилик хўжаликларига катта имкониятлар яратиб беради. Шу боисдан, уруғчилик хўжаликлирида нафақат уруғ етиштириш ва сотиш балки доимий равишда тадқиқотлар олиб бориш, илмий асосланган ҳолда ишлаб чиқраишни ташкил этиш билан боғлиқ муаммолар ечимларига бағишлиланган илмий тадқиқотлар олиб бориш зарурияти ортиб бормоқда.

Яратилган имкониятлардан тўлиқ фойдаланган ҳолда мамлакатимизда уруғчилик, айниқса элита уруғчилиги соҳасини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини билишни ва улардан самарали фойдаланиш тадбирларини ишлаб чиқиши тақозо этади. Бу кўп жиҳатдан маҳсулотлар ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш, моддий манфаатдорлик масаласи ва моддий-техник таъминот, маҳсулот сотиш, борасидаги муаммоларни ҳал этишга ҳам боғлиқ бўлиб қолади. Ушбу соҳалардаги муаммоларни ҳал этиш яна ўз ўрнида уруғчилик тармоғи қандай ўзига хосликлар билан боғлиқ ҳолда ривожланиб бориши лозимлигини билишни талаб этади.

Мамлакат иқтисодиётини ривожлантириши ва жаҳон иқтисодиётига интеграциялашуви шароитида жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг инновациялардан фойдаланишга асосланган янги парадигмаси шаклланмоқда. Бу эса, ўз навбатида, республикамиз қишлоқ хўжалигининг барча соҳаларида, шу жумладан, уруғчилиқда ҳам инновацион жараёнларнинг фаоллашувини таъминлашни талаб этади. Тадқиқотлар кўрсатишича, инновацияларнинг самарадорлиги ва ишлаб чиқарувчиларнинг инновацион жараёнга жалб этилиш даражаси кўп жиҳатдан жаҳон қишлоқ хўжалиги бозорига кириб бориш муваффақиятини ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг рақобатбардошлигини ҳамда аҳолининг хавфсиз озиқ-овқат билан таъминланишида муҳим аҳамият касб этади.

Инновацион ривожланишга ўтиш нафақат Ўзбекистон иқтисодиётининг аграр секторида тўпланган муаммоларни ҳал қилиш зарурати билан, балки ушбу соҳанинг олдида турган бошқа бир қатор масалалар билан ҳам боғлиқдир. Замонавий шароитда инновацион фаолият уруғчиликни ривожлантиришда асосий омил бўлиб, ундан фойдаланиш мамлакатимиз агросаноат мажмуасининг барқарор ривожланишини таъминлашнинг ягона усули ҳисобланади.


Масаланинг муҳим томони шундаки, инновацион технологиялардан фойдаланмасдан туриб, уруғчилиқда ички бозорда рақобатлашиш қийинлашмоқда. Агрокластерларнинг ривожланиши бозорларда рақобат кучайиб маҳсулот етиштирувчилар талаблари ортаётгани уруғ етиштирувчидан масалага жиддий ёндашув талаб этилади. Шунингдек, дунё бозори талаби ўзгариши йўналишларига эътибор берадиган бўлсак, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига талаблар ўзгараётганини илғаш мумкин. Бу масала ҳам уруғчилик хўжаликлари диққат- эътиборида бўлиши лозим.

Тадқиқотлар кўрсатишича уруғчилик соҳасидаги хўжаликлар фаолияти билан боғлиқ бўлган ўзига хос хусусиятларга қуидагиларни киритиш мумкин (2.1-расм). Улар қуидагиларда намоён бўлади:

- бир тумандаги 10 минглаб экин майдонларига уруғ етказиб берувчи уруғчилик соҳасида ташкил этилаётган хўжаликлар ер майдонлари ўртача 20-50 гектарни ташкил этиши боис ушбу хўжаликларда етиштириладиган уруғчилик маҳсулотлари ҳажмлари ҳам кичик микдорда бўлади. Кичик-кичик ҳажмларда маҳсулот етиштирувчи уруғчилик хўжаликларида маҳсулотларни алоҳида ташиб, сақлаш ва сотиш жараёнларида, шунингдек, инвестициялар жалб қилиш борасида қатор иқтисодий муаммолар туғилади. Бу эса, ўз навбатида, ишлаб чиқаришни ривожлантиришга тўсик бўлувчи оқибатларга олиб келади;

- элита урганини етиштирувчи хўжаликлар раҳбарларидан соҳа билан боғлиқ бўлган етарли даражадаги билим, тажриба ва маҳорат талаб этилади.

Экинни парваришилаш, ҳосилни зааркунанда ва касалликлардан ҳимоя қилиш масаласига жиддий ёндашмасдан келгуси мавсумда бутун бир худудда юқори ҳосил олиш мумкин эмас. Аммо уруғчилик хўжаликлари тез тез ўзгариш ҳолати кузатилади;



## 2.1-расм. Мамлакатимизда элита уруғчилигини ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари<sup>1</sup>


Мамлакатимизда элита уруғчилигини ривожлантиришга бир қанча омиллар таъсири этиб, улар қуидагилардан иборат бўлади (2.2-расм).

Табиий омиллар асосан ёғингарчилик муддати ва ҳажми, йиллик харорат, намлик миқдори, самарали иссиқлиқ, тупроқ таркиби ва гумус миқдори ва бошқалардан иборат бўлса, иқтисодий омиллар ҳарид баҳоси, шартнома муносабатлари, тўлов тури ва шакли, солиқлар, рафбатлантириш усуллари, имтиёзлар, бозор баҳоси кабиларни ўз ичига олади.

Шунингдек, ижтимоий омиллар хўжалик раҳбари ва мутахассисларининг билим даражаси, маъсулиятни хис эта олиши, кўникмалари, инфратузилма обьектлари мавжудлиги ва ҳолатини ўз ичига қамраб олса, технологик омиллар

<sup>1</sup> Муаллиф томонидан тизимлаштирилди.

сифатида янги навларнинг яратилиши, техникалардан фойдаланиш кўникмаси, инновацияга муносабат, янгиликни ўзлаштириш қобилиятини киритишимииз мумкин.



## 2.2-расм. Мамлакатимизда элита уруғчилигини ривожлантиришга таъсир этувчи омиллар<sup>1</sup>

Демак, уруғчилик йўналишдаги хўжаликларини ривожлантириш тадбирлари ишлаб чиқилиши ва амалга оширилиши пайтида соҳанинг ўзига хос бўлган, юқорида қайд этилган, шунингдек, ҳар бир ҳудуд шароитлари билан боғлиқ хусусиятларини ҳисобга олиб, улардан унумли фойдаланиш бундай хўжаликларнинг иқтисодий барқарорлиги гарови ҳисобланади. Республика аҳолисини витаминаларга бой, экологик тоза озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш ва аграр тармоқнинг экспорт салоҳиятини оширишда катта имкониятларга эга уруғчилик соҳасининг ўрни бекиёс. Ушбу имкониятлардан тўлиқ фойдаланиш уруғчилик соҳасини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини билишни ва улардан самарали фойдаланиш тадбирларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Бу кўп жиҳатдан маҳсулотлар ишлаб чиқариш

<sup>1</sup> Муаллиф томонидан тизимлаштирилди.

жараёнини ташкил этиш, моддий манфаатдорлик масаласи ва моддий-техник таъминот, маҳсулот сотиш, борасидаги муаммоларни ҳал этишга ҳам боғлиқ бўлиб қолади.

Мамлакатимизда барча соҳаларда бўлгани каби қишлоқ хўжалигида ҳам туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, қишлоқ хўжалиги уруғчилигини ривожлантиришда Ўзбекистон Республикасининг “Уруғчилик тўғрисида”ги ва “Селекция ютуқлари тўғрисида”ги қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 17 апрелдаги ПФ-5418-сонли Фармони, 2018 йил 27 апрелдаги ПҚ-3683-сонли қарори ижросини таъминлаш катта аҳамият касб этмоқда.

Мазкур хужжатлар билан уруғчилик соҳасида фаолият кўрсатаётган ташкилотларнинг ваколатлари белгилаб берилди ва уларнинг тузилмаси ташкил этилди. Пахтачилик ва ғаллачилик соҳасида ташкилий ва бошқарув тизими такомиллаштирилиб, моддий-техника базаси мустаҳкамланди, селекционер-олим ва мутахассисларни рағбатлантириш механизми жорий этилди.

Уруғчилик соҳасидаги ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги хузурида Уруғчиликни ривожлантириш маркази ташкил этилди. Шунингдек, республикада маҳсус элита уруғчилиги хўжаликларининг фаолияти йўлга қўйилди. “Ўзпахтасаноат” АЖ қошида 34 та уруғлик чигит тайёрлаш цехлари ташкил этилиб, замонавий ускуналар билан жиҳозланди.

“Ўзноммаҳсулот” компанияси тизими корхоналари таркибида 67 та уруғлик тайёрлаш цехлари ташкил этилиб, шундан 44 таси Германия давлатининг “Петкус” компаниясининг замонавий дастгоҳлари билан жиҳозланди. Натижада, бошоқли дон экинларининг юқори авлодли (супер элита, элита, биринчи авлодли) уруғликлари билан тўлиқ ҳажмда таъминлашга эришилди. Мамлакатимизда мустақиллик йилларида бошоқли дон экинлари уруғчилигини ривожлантириш бўйича амалга оширилган кенг кўламли ислоҳотлар натижасида ҳосилдорлик гектаридан ўртacha 17 центнердан 55 центнерга етказилди, дон ишлаб чиқариш ҳажми 8,2 баробарга кўпайди.

Соҳани ривожлантиришга қаратилган қонунлар, қарорлар ва бошқа норматив-хукуқий хужжатларни қабул қилиниши ҳамда уруғчиликда олиб борилган комплекс чора-тадбирларнинг бажарилиши натижасида бир қатор ишлар амалга оширилди. Жумладан, сўнгги йилларда республикада ғўзанинг 27 та, кузги юмшоқ буғдойнинг 36 та (шу жумладан 16 та хорижий), кузги қаттиқ буғдойнинг 3 та (1 та хорижий), баҳорги буғдойнинг 1 та, кузги арпанинг 9 та (4 та хорижий), сулининг 7 та, тритикаленинг 3 та, маккажўхорининг 43 та (41 та хорижий), жўхорининг 3 та (1 та хорижий), шолининг 8 та, дуккакли дон

экинларидан нўхатнинг 6 та, мошнинг 6 та, кўк нўхатнинг 2 та, ясмиқнинг 3 та ва соянинг 12 та (3 та хорижий) навлари яратилиб, Давлат реестрига киритилди.

Юқоридаги ижобий натижалар билан бирга соҳа ривожига тўсқинлик қилиб келаётган бир қатор муаммолар мавжуд бўлиб, улар қуидагилардан иборат:

**Биринчидан**, уруғликларни экиш, етиштириш, йиғиштириб олиш, қабул қилиш, сақлаш, қайта ишлаш, саралаш, дорилаш, қадоқлаш, тарқатиш механизмлари ва бу жараёнларда қўлланилаётган меъёрий ҳужжатлар, стандартлар халқаро талаблар ва стандартлар билан уйғунлашмаган ҳолда эскилигича қолмоқда. Бугунги кунда элита уруғчилик лабораторияларида ва пахта қабул қилиш масканларида пахта толасининг сифатини аниқлаш эскирган ускуналарда амалга оширилмоқда.

Уруғчилик билан шуғулланувчи илмий-тадқиқот институтлари, элита-уруғчилиги лабораториялари ва хўжаликларининг моддий-техника базаси маънан ва жисмонан эскирган бўлиб, ўтган асрнинг 60-70 йилларида ишлаб чиқарилган. Уруғчилик лабораторияларини бино ва иншоотлари таъмир талаб аҳволда, илмий-тадқиқот муассасаларида бугунги кунда селекция, уруғчилик, токсикология, агрокимё, биокимё лабораториялари замон талаблари асосида жиҳозланмаган, уруғлик экинларини парваришилашда қишлоқ хўжалиги маҳсус техникалари етишмайди;

**Иккинчидан**, тупроқ унумдорлиги паст, сув таъминоти оғир, қишлоқ хўжалиги техникалари билан етарли даражада таъминланмаган, уруғчилик бўйича мутахассислари етишмайдиган ва талабга жавоб бермайдиган 10-15 фоиз уруғчилик хўжаликлари нотўғри танланиши ва ушбу майдонларда агротехника тадбирларини сифатсиз ва кечикиб ўтказиш оқибатида ҳар йили 10-15 минг гектар (12-15%) уруғлик пахта ва 10-12 минг гектар (13-14 %) уруғлик фалла майдонлари яроқсизга чиқарилмоқда.

**Мамлакатимизда уруғчилик тизимининг ривожланиши  
босқичлари ва унда шаклланган муаммолар тизими**

**Босқичлар**

**Уруғчилик соҳасини ривожлантириш  
заруритини келтириб чиқарувчи ҳолатлар**

**1-Босқич  
1991-2000**

**йиллар**  
Меъёрий  
хужжатлар  
шаклланиши  
даври

Кўлланилаётган меъёрий хужжатлар, стандартлар  
халқаро стандартлар билан уйғунлашмаганлиги

**2-Босқич  
2001-2016**

**йиллар**  
Рағбатлан-  
тириш ва  
турғунлик  
даври

Уруғчилик бўйича мутахассислари етишмаслиги ва  
агротехник тадбирларнинг сифатсиз бажарилиши

Худудларнинг тупроқ-иқлим шароитига мос  
равища жойлаштирилмаслиги

Моддий-техник базасининг талаб даражасида  
эмаслиги

Сабзавот-полиз, дуккакли, озуқа, мойли экинлари  
уруғчилиги тизимли ташкил этилмаганлиги

Вируссиз уруғларни кўпайтириш бўйича ишлар  
етарлича йўлга қўйилмаганлиги

Уруғлик чигит ва донни дорилашда замонавий  
технологиялари ва самарали дори препаратларини  
кўллашда илмий-асосланган тавсиялардан  
фойдаланилмаётганлиги

Уруғчилик хўжаликларнинг фаолиятини  
мувофиқлаштириш тизими эскирганлиги

Уруғчилик ва уруғшунослик соҳасида юқори  
илмий малакага эга бўлган кадрларнинг  
етишмаслиги

**2.3-расм. Мамлакатимизда уруғчилик тизимининг ривожланиши  
босқичлари ва унда шаклланган муаммолар тизими<sup>1</sup>**

Шунингдек, пахта ва ғалла экинлари учун тизимли тартибда уруғлик  
етиштириш йўлга қўйилган бўлсада, сабзавот-полиз ва бошқа экинлар  
уруғчилиги ва етиштирилган маҳсулоти учун давлат томонидан буюртма олиш  
хамда экспортга йўналтириш бўйича тизим шакллантирилмаган;

**учинчидан**, ғўза ва бошоқли дон экинлари навларини худудларнинг  
тупроқ-иқлим шароитига мос равища жойлаштириш тартибига риоя  
қилинмаяпти. Белгиланган тартибга асосан битта вилоятда ўнтадан қўп, битта

<sup>1</sup> Муаллиф томонидан тузилган

туманда бештадан кўп бошоқли дон экинларининг районлаштирилган навларини, шунингдек, битта вилоятда бештадан кўп, битта туманда иккитадан кўп бўлмаган ғўзанинг районлаштирилган навларини жойлаштириш белгиланганлигига қарамасдан, айрим туман ва вилоятларда ушбу тартиб бузилмоқда. Шу жумладан, Қорақалпоғистон Республикаси, Жиззах, Қашқадарё, Наманган ва Сурхондарё вилоятларида 6-7 та ғўза навларини экилишига йўл қўйилган. Шунингдек, Беруний, Улуғнор, Бўз, Қоракўл, Дўстлик, Пахтакор, Ғузор, Касби, Навбаҳор, Хатирчи, Пайариқ, Шўрчи, Денов, Бўка, Урганч туманларида 3-4 тадан навлар жойлаштирилишига йўл қўйилган.

Ташки ташкилотларо инновацион жараён янгиликлар билан савдо объекти сифатида ишлайди. Кенгайтирилган инновацион жараён мавжуд ишлаб чиқарувчининг монополиясини бузган ҳолда, янги инновацион ғояларни яратишида иштирок этади, бу хўжалик субъектлари ўртасида рақобат орқали маҳсулотнинг истеъмол хусусиятини яхшилаш, сифати ва рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Кенгайтирилган инновацион жараёнлари шароитида камидা иккита хўжалик юритувчи субъект, инновация ишлаб чиқарувчиси (яратувчиси) ва истеъмолчиси (фойдаланувчиси) фаолият кўрсатади.

#### **Уруғчилик соҳасида инновацион жараённинг амалга ошириш босқичлари**

##### **Биринчи босқич**

Соҳадаги мавжуд муаммоларни таҳтилий тадқик қилиш асосида хулосоллар ишлаб чикиш;

##### **Иккинчи босқич**

Муаммолар ёнимларини излаши ва мос келувчи ғояларнинг вариантили ўйларини шакллантириш;

##### **Учинчи босқич**

Муаммолар ёними бўйича илмий ишланмаларни, ғояларни танлаш, ишлаб чиқариш шароитига мослигини ўрганиш.

##### **Тўртинчи босқич**

Инновацион ишланмалар ва ғояларнинг синовларини кичик майдонларда ташкил қилиш ҳамда такомиллаштириш;

##### **Бешинчи босқич**

Синовлардан ўтган инновацион ишланмани ишлаб чиқаришга жорий қилиш (хўжалик шартномалари, инновацион давлат пасгутуплати),

**2.4-расм. Уруғчилик соҳасида ишлаб чиқаришида янги ғояларни татбик қилишдаги инновацион жараённинг босқичлари.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Манба. Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда муаллиф томонидан тизимлаштирилди.

Қишлоқ хўжалигида, хусусан уруғчиликда инновация фаолиятини амалга ошириш учун биологик организмлар билан ишланишини, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш тизимининг ички ва ташки ўзаро таъсирининг ўзига хос хусусиятларини эътиборга оладиган бўлсак, иқтисодиётнинг аграр секторидаги инновацияларнинг аниқ йўналтирилган таснифини келтириб ўтиш лозим.

**Хулоса қилиб айтганда,** Дунёning етакчи илмий-тадқиқот муассасалари томонидан уруғчилик борасида кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Айниқса, глобал табиий-иқлим шароитларининг кескин ўзгариши ҳамда эпидемиологик вазиятнинг ёмонлашуви туфайли карантин чекловлари жорий қилиниши натижасида, ушбу муаммолар янада кескинлашмоқда. Жумладан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ҳамда истеъмолчиларга талаб даражасида етказиш, яъни, уларни ташиш, сақлаш, қайта ишлаш ва сотиш тизими билан боғлиқ турли қийинчиликларни келтириб чиқармоқда. Бу эса ердан унумли фойдаланиш, озиқ-овқат маҳсулотлари етиштиришни кўпайтириш ҳамда уларни истеъмолчиларга етказиб бериш бўғинларини ривожлантириш, қўшилган қиймат занжири субъектлари ўртасидаги интеграция ва кооперация муносабатларини бозор иқтисодиёти талабларига мослаштириш, айниқса мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш каби долзарб муаммоларга алоҳида эътибор қаратишни тақозо этади.

Мамлакат иқтисодиётини ривожлантириши ва жаҳон иқтисодиётига интеграциялашуви шароитида жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг инновациялардан фойдаланишга асосланган янги парадигмаси шаклланмоқда. Бу эса, ўз навбатида, республикамиз қишлоқ хўжалигининг барча соҳаларида, шу жумладан, уруғчиликда ҳам инновацион жараёнларнинг фаоллашувини таъминлашни талаб этади. Тадқиқотлар кўрсатишича, инновацияларнинг самарадорлиги ва ишлаб чиқарувчиларнинг инновацион жараёнга жалб этилиш даражаси кўп жиҳатдан жаҳон қишлоқ хўжалиги бозорига кириб бориш муваффақиятини ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг рақобатбардошлигини ҳамда аҳолининг хавфсиз озиқ-овқат билан таъминланишида мухим аҳамият касб этади.

Инновацион ривожланишга ўтиш нафақат Ўзбекистон иқтисодиётининг аграр секторида тўпланган муаммоларни ҳал қилиш зарурати билан, балки ушбу соҳанинг олдида турган бошқа бир қатор масалалар билан ҳам боғлиқдир. Замонавий шароитда инновацион фаолият уруғчиликни ривожлантиришда асосий омил бўлиб, ундан фойдаланиш мамлакатимиз агросаноат мажмуасининг барқарор ривожланишини таъминлашнинг ягона усули ҳисобланади.

Инновацион ривожланишга ўтиш нафақат Ўзбекистон иқтисодиётининг аграр секторида тўпланган муаммоларни ҳал қилиш зарурати билан, балки ушбу соҳанинг

олдида турган бошқа бир қатор масалалар билан ҳам боғлиқдир. Замонавий шароитда инновацион фаолият уруғчиликни ривожлантиришда асосий омил бўлиб, ундан фойдаланиш мамлакатимиз агросаноат мажмуасининг барқарор ривожланишини таъминлашнинг ягона усули ҳисобланади.

Уруғчилик соҳасидаги ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳузурида Уруғчиликни ривожлантириш маркази ташкил этилди. Шунингдек, республикада маҳсус элита уруғчилиги хўжаликларининг фаолияти йўлга қўйилди. “Ўзпахтасаноат” АЖ қошида 34 та уруғлик чигит тайёрлаш цехлари ташкил этилиб, замонавий ускуналар билан жиҳозланди.

Фикримизча, уруғчиликда инновацион фаолиятни шакллантиришда илгор ишлаб чиқариш субъектлари негизида агротехнопарклар, технополислар (технологик марказлар), илмий ва ишлаб чиқариш марказлари фаолияти орқали инновацион ғояларни амалиётга киритишга алоҳида эътибор қаратишни талаб этади. Бу ерда технопаркларнинг вазифалари биринчи навбатда, қишлоқ хўжалик экинларининг уруғларини етиштириш, энергия тежайдиган технологияларни тарқатиш, янги сифатли маҳсулот турларини ишлаб чиқиш, уларнинг экологик хавфсизлигини ва рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалигига қайта ишлаш ва озиқ-овқат саноатида (биология ва биотехнологияда) илмий ва технологик ютуқлар натижаларини тарғиб қилиш учун ҳар бир ҳудудда ахборот ҳамда маслаҳат тизимини ташкил этишдан иборат бўлиши керак.

Албатта, уруғчиликда технополислар шаклланиши илмий тадқиқотлар олиб бориш, маҳсулот қадоқланиши учун янги дизайн ишлаб чиқиш, энг янги технологиялар ва жиҳозларни яратиш, қишлоқ хўжалигининг янги маҳсулдор навларини, илм-фан ва таълим учун малакали илмий кадрлар тайёрлаш ҳамда қайта тайёрлаш учун хизмат қиласди.

Уруғчиликда инновацион фаолиятни бошқариш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий механизмини амалга ошириш учун ташкилот ва корхоналарнинг илмий, инновацион ва иктисодий фаолиятининг доимий ўзгарувчан бозор шароитларига мослашувига таъсир этувчи ижтимоий-иктисодий муносабатларни ўрганишни тақозо этади. Инновациялар ривожланишини бошқариш ва рағбатлантиришнинг иктисодий механизми молиявий, кредит, инвестиция, нархлаш, сугурта сиёсати ва инновациянинг моддий-техник базасини такрор ишлаб чиқаришини рағбатлантиришни ўз ичига олади. Албатта, бошқа тармоқлар каби қишлоқ хўжалигига ҳам инновацион фаолиятни ривожлантиришда салбий таъсир кўрсатувчи омиллар ҳам мавжуд. Жумладан:

- об-ҳаво шароитлари ва табиий оғатлар (курғоқчилик, тошқинлар, глобал иқлим ўзгариши) нинг барқарор эмаслиги;

- хўжалик ишчилари ва, умуман, агробизнеснинг касбий даражаси пасайиши;
- уруғчилик хўжалигини ривожлантиришда инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқиши ва амалга оширишга инвестицияларнинг етишмаслиги;
- уруғчилик хўжалиги субъектлари инновацион фаоллигининг пастлиги ва инновацион инфратузилманинг ривожланмаганлигидир.

Уруғчилик хўжалигининг инновацион ривожланиши йўлига ўтишида барқарор тараққиётни таъминлаш учун агросаноат комплексининг инновацион ривожланишида бир қатор вазифаларни, жумладан:

- самарали ресурсларни тежайдиган технологияларни маҳаллийлаштириш асосида ишлаб чиқиши ва жорий этиш орқали аграр секторда инновацион ишланмаларнинг рақобатбардошлилиги ва экспорт салоҳиятини ошириш;
- юқори технологияли маҳсулотлар учун янги бозорларни шакллантириш имкониятини белгилайдиган, мавжуд технологияларни такомиллаштириш асосида тайёр маҳсулот соҳаси учун юқори сифатли дон ва қорамолларнинг парҳез гўшти, картошка крахмалини ҳамда бошқа янги қишлоқ хўжалик маҳсулотларини яратиш, маҳаллийлаштириш дастури доирасида «илғор технологиялар» тўпламини ишлаб чиқиши;
- қишлоқ хўжалиги корхоналари ва инфратузилма обьектларини техник ва технологик модернизациялашни узоқ муддатли кредит ва лизинглар асосида амалга ошириш лозим.

Уруғчилик хўжалигидаги юқори технологияли инновациялар соҳаларининг рақобатбардошлилиги ва экспорт салоҳиятини оширишни давлат томонидан қўллаб-куватлашнинг асосий воситалари давлат дастурлари бўлиб, улар энг истиқболли лойиҳаларни молиялаштиришни таъминлайди.

Юқоридагилардан келиб чиқсан холда, уруғчиликда инновацион жараёнларнинг ташкилий-иктисодий моҳияти уларни ривожлантиришнинг мақсад ва вазифалари билан боғлиқ бўлиб, уларда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини илм-фан, техника ҳамда жаҳон тажрибасини ҳисобга олган холда уни такомиллаштиришга қаратилган доимий ташкилий, иктисодий, техник ва технологик янгилашдир. Бу борада саноатни инновацион ривожлантиришнинг пировард мақсади қишлоқ хўжалигининг инновацион турини шакллантириш ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Қишлоқ хўжалиги экинлари уруғчилигини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-106-сонли қарори.
2. Жонихов М., Раҳмонов С. Озиқ-овқат дастури: мамлакат тараққиёти, иқтисодиёт барқарорлиги ва фаровонликнинг мустаҳкам асоси.// “Халқ сўзи” газетаси, 2014 йил 7 июн.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Уруғчилик тўғрисида”ги ва “Селекция ютуқлари тўғрисида”ти қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 17 апрелдаги ПФ-5418-сонли Фармони, 2018 йил 27 апрелдаги ПҚ-3683-сонли қарори.
4. Муаллиф томонидан тадқиқотлар асосида тизимлаштирилган расмлар.

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>K.Sh.Xamrayev, Z.Z.Qodirov, M.O.Qurbanova, &amp; M.Shodmonova. (2023). BUXORO VILOYATI G'O'ZA MAYDONLARINI SUG'ORISHDA RESERS TEJAMKOR SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH. GOLDEN BRAIN, 1(25), 4–9. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351164">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351164</a></b>
2	<b>o'rayeva Dilnoza Xudoyberdi qizi. (2023). GALIA QOVUNINI INSONGA FOYDALI JIHA TLARI VA YETISHTIRISH TARTIBI. GOLDEN BRAIN, 1(25), 10–14. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351184">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351184</a></b>
3	<b>Jo'rayev Jasurbek Murodjon o'g'li. (2023). TARVUZNING MAHALLIY HAMDA CHET-EL SUPER CRIMSON NAVLARINING TAVSIFI. GOLDEN BRAIN, 1(25), 15–19. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351192">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351192</a></b>
4	<b>R.R. Yusupov, D.Kh. Khojaev, &amp; J.I. Makhmudov. (2023). THE STRENGTH OF REINFORCEMENT CONNECTION WITH CERAM SITE CONCRETE. GOLDEN BRAIN, 1(25), 20–27. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351202">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351202</a></b>
5	<b>Z.Z.Qodirov, K.Sh.Xamrayev, O.Shodihev, J.Jumayev, &amp; M.Shodmonova. (2023). KUNGABOQARNI TURLI SUG'ORISH USULLARIDA SUG'ORISHNING SIZOT SUVLARI SATHI VA MINERALIZATSII ASIGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 1(23), 28–33. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351317">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351317</a></b>
6	<b>Salimova Muyassar Abdulla qizi. (2023). AIR TRANSPORT SERVICE IN THE FIELD OF TOURISM. GOLDEN BRAIN, 1(25), 34–37. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351391">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351391</a></b>
7	<b>Usmonov Kuvonchbek Mannonovich. (2023). NOAN'ANAVIY UGLEVODOROD RESURSLARI. GOLDEN BRAIN, 1(25), 38–41. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8351401">https://doi.org/10.5281/zenodo.8351401</a></b>

8

**Rajabova Saodatjon Matvapayevna. (2023). OLLOQULIXONNING  
МЕ'MORCHILIKDAGI QILGAN ISHLARI. "TOSH HOVLI SAROYI"  
TARIXI. GOLDEN BRAIN, 1(25), 42–45.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8351411>

9

**Polvonov Baxtiyor, & O'rinboyev Alisher. (2023). KIBERXAVFSIZLIKDA  
RISKLARNI BAHOLASHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 1(25),  
46–50. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8351426>**

10

**Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o'g'li, & Mamayeva Oydinoy  
Ismoiljon qizi. (2023). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ELEKTRON  
AMALIY DASTURIY PAKETLARNING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN,  
1(25), 51–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8351439>**

11

**Бекчанова Нилуфар Ахмеджановна. (2023). ХОРАЗМ ВОҲАСИНИНГ  
АҲОЛИ ОРАСИДА ОИЛА-НИКОҲ МУНОСАБАТЛАРИДА  
ИЖТИМОЙ – МАҶНАВИЙ ХУСУСИЯТЛАР. GOLDEN BRAIN, 1(25),  
56–60. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8351455>**

12

**Чориев Яшнарбек Абдугаффор угли, & Каримова Азиза  
Махомадризоевна. (2023). БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА УЗБЕКИСТАНА И  
ЕЕ РОЛЬ В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ. БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА  
УЗБЕКИСТАНА И ЕЕ РОЛЬ В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ, 1(25), 61–  
65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8351479>**

13

**Shakhnoza Mamatova Hoshim qizi. (2023). TEACHERS VS. AI-BASED  
CLASSES IN EDUCATION: A COMPARATIVE ANALYSIS AND FUTURE  
PROSPECTS. GOLDEN BRAIN, 1(25), 66–71.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8359915>**

14

**Фазилов Жанибек. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩИХ  
ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИНФОРМАТИКИ. GOLDEN BRAIN, 1(25),  
72–78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8359989>**

15

**Разоқов Бобирмирзо Рамазон ўғли. (2023). ЭЛИТА УРУҒЧИЛИК  
ХЎЖАЛИКЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН  
ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(25),  
79–91. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8360013>**